

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

Andijon davlat universiteti

Ona tili va tillarga o`qitish ta`lim yo`nalishi

*4- kurs « A » guruh talabasi Karimova Madinaning*

*Hozirgi o`zbek adabiy tili fanidan*

*“O`ziniki bo`lmagan ko`chirma gapning grammatik- stilistik  
xususiyatlari va badiiy matndagi o`rni” mavzusidagi*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D. Nabiyeva.

Andijon – 2016

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

### **I BOB. KO'CHIRMA GAPLARNING UMUMIY TAVSIFI**

1.1. O'zbek tilida ko'chirma gaplarni o'rganilish darajasi.....

1.2. Qo'shma gaplar va ko'chirma gaplar.....

1.3. O'zga shaxsni fikrini ifodalashga ko'ra ko'chirma gapning turlari:

1.3.1. Sof ko'chirma gap.....

1.3.2. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap.....

1.3.3. O'zlashtirma gap.....

### **II BOB. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning grammatik- stilistik xususiyati va badiiy matndagi o'rni**

2.1. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning xalq og'zaki ijodi matnlarida qo'llanilishi.....

2.2. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning poetik matndagi o'rni.....

2.3. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning prozaik matndagi o'rni.....

**Xulosa**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**.....

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq prezidentimiz I.A Karimov yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor bera boshladi. O'zbek tilining «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Davlat ta'lim standartlari» ning chop etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. **Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.**

Prezidentimiz Islom Karimov ona tilimiz – o'zbek tilini yanada rivojlantirish va kamol toptirish haqida doimo qayg'urib keladi. Uning quyidagi fikrlari buning yorqin isbotidir: “Biz avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank – moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilishi darajasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat maktab ta'lim tizimida va hayotda ona tilining tutgan o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinflardanonaq ona tili o'qitishda izchillikka rioya qilish zarurdir. Ona tilidan beriladigan bilimlar mazmuni va mashg'ulot turlari, albatta, bolalarning aqliy va ruhiy kamolotiga, qabul qilish darajasiga bog'liqdir. Ona tili fanidan dastur va darsliklar tuzilayotganda fanning bo'limlari, ularning umumiy va o'ziga xos tomonlariga e'tibor qaratish lozimdir. Aytish mumkinki, Davlat dasturida

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – B. 87.

har bir bo`lim yuzasidan o`zlashtirilishi zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar hajmi belgilab qo'yilgan.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta'lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog'liqdir.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, “Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”. O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning tilini ham bilmaydi.<sup>2</sup>

Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Maktab ona tili ta'limining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda madaniy nutqni shakllantirishdir. Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Nutq madaniyati deganda, eng avvalo, insoniy idrokni – so'z ma'nosini chuqur va teran anglashni, qolaversa, savodxonlikni tushunamiz. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”<sup>2</sup>. Darhaqiqat, hozirgi ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bolalarni mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, o'z fikrlarini og'zaki hamda yozma tarzda to'g'ri va erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunimini tanlay olish ko'nikmalarni

---

<sup>2</sup> Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». ?.: O'zbekiston, 2011-y. 67-b.

shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rnini hamda imkoniyatlari benihoya katta.

Maktab ona tili ta'limi har doim jamiyat talablari asosida rivojlanib boradi va shaxs taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ta'lim rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lib, o'quvchi bilimlarini takomillashtirishga asoslanadi. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida qizg'in o'rganilayotgan masalalardan biri qo'shma gap va uning turlari masalasidir. O'zbek adabiy tilida qo'shma gaplar tuzilishi, sinonimiyasi, yasaliş usullari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, o'zbek tilida ko'chirma gapli konstruksiyalar, ularning turlari yuzasidan A.B.Abdullayev, D.Abdullayeva, B.Yo'ldoshevlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Shuningdek, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, B.O'rinboyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov kabi tilshunoslar kabi tilshunoslar ham o'zbek tili sintaksisiga oid asarlarida ko'chirma gapli konstruksiyalarga o'z munosabatlarini bildirganlar.

Ko'rinadiki, ko'chirma gapli konstruksiyalar doimo tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan, lekin shunga qaramay, ular turlicha talqin qilinadi. Bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Ishning maqsad va vazifalari:** **Ishning maqsadi** o'zbek tilshunosligida ko'chirma gaplarning maqomini belgilash, ularning turlarini aniqlash va ko'chirma gap turlaridan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning grammatik – stilistik xususiyatlari va badiiy matndagi o'rnini aniqlash.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** amalga oshirildi:

- o'zbek tilida ko'chirma gaplarni o'rganilish darajasi yoritildi;
- o'zga gapli ko'chirma gapni ifodalash usuliga ko'ra turlari ko'chirma gapning turlari aniqlandi;
- o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning grammatik- stilistik xususiyatlari ochib berildi;
- o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning badiiy matndagi o'rnini haqida ma'lumot berildi.

## **I BOB. KO'CHIRMA GAPLARNING UMUMIY TAVSIFI**

### **1.1. O'zbek tilida ko'chirma gapli konstruksiyalarning o'rganilish darajasi**

Bizga ma'lumki hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik qurilishini o'rganish doimo tilshunoslar diqqat markazida bo'lgan. Sintaktik tadqiqotlar dastlab gap va uning bo'laklari, qo'shma gap sintaksisi masalalari bo'yicha borilgan edi. O'zbek tilida gap va uning mohiyati A. G'ulomovning "Sodda gap" asarida (1955) birinchi marta atroflicha yoritilgan edi.

O'zbek tili umumiy tillar sintaksisining munozarali, to'la shakllanmagan masalalaridan biri so'z birikmasi, gapda so'z bo'lak tartibi, uning funksiyasi masalasidir.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida qizg'in o'rganilayotgan masalalardan yana biri qo'shma gap va uning turlari masalasidir.

Keyingi yillarda umumiy tilshunoslikda ko'chirma gapli konstruksiyalar sintaksisi nazariy jihatdan chuqur tadqiq etila boshladi. Lekin ko'chirma gapni lingvistik kotigoriya sifatida qaralishiga tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q. V. N. Voloshinovning fikricha, "ko'chirma gap – bu nutq ichida nutq, ifoda ichida ifoda, shu bilan birga nutq haqida nutq va ifoda haqida ifoda"<sup>3</sup>

Turkiy tillar sintaksisiga bag'ishlangan ayrim ishlarda o'zga gapli qurilmalar (ko'chirma gapli konstruksiyalar) va qo'shma gaplar tashqi shakliy belgilari asosida tenglashtiriladi. Lekin bunda ularning struktur – semantik xususiyatlari va o'rni hisobga olinmaydi. Xususan, A.Isroilov fikricha ko'chirma gapli qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplarning bir turidir. Bunday qurilmalarda avtor gapi bosh gap, ko'chirma gap esa ergash gap hisoblanadi.<sup>4</sup> Grammatik nuqtayi nazardan , - deya ta'kidlaydi. M. Sharipov, - ko'chirma gap mustaqil birlik bo'lib,

---

<sup>3</sup>Bu haqida qarang: Адуллаев А.Б.Конструкции с чужой речью как самостоятельная категория узбекского синтаксиса – Т: Фан,1985.

<sup>4</sup>Исроилов А. Чужая речь в современном узбекском литературном языке. –Ашхабад, 1971.

avtor gapi bilan mazmun jihatdan birlashadi. Bu xildagi konstruksiyalar bog'langan qo'shma gaplarni hosil qiladi<sup>5</sup>.

Ayrim tilshunoslar ko'chirma gapli konstruksiyalar (o'zga gapli qurilmalar) ni qo'shma gaplarning alohida turi sifatida qarasalar, yana bir guruh tilshunoslar esa ularni qo'shma gaplar sirasiga kiritmaydilar, ularga sintaksisning alohida kategoriyasi sifatida qaraydilar<sup>6</sup>.

Xususan, A.Abdullayev shunday yozadi: "Sintaktik birlik sifatida o'zga gapli qurilmalar tashkiliy qismlarining nafaqat shakliy belgilari, balki mazmuniy xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shu sababli ularni bog'langan qo'shma gaplarga ham, ergashgan qo'shma gaplarga ham kiritib bo'lmaydi. Chunki remarka (avtor gapi) o'zidan semantik jihatdan ustun bo'lgan ko'chirma gap bilan to'ldiriladi. O'zga gapli qurilmalar alohida sintaktik kategoriya bo'lib o'zida bog'lovchilik va ergashtiruvchilik elementlarini birlashtiradi. Ular tarkibida teng huquqli bo'lmagan gaplarni bog'lash uchun turli xil sintaktik imkoniyatlardan foydalanish ushbu qurilmalarning spetsifik asoslarini tashkil etadi."<sup>7</sup>

D. Abdullayeva ham semantik- sintaktik valentlik va o'zga gapli qurilmalar mavzusida tadqiqot olib borar ekan, o'zga gapli qurilmalarni sintaksisning alohida kategoriyasi sifatida talqin etadi.

O'zbek tilshunosligida lisoniy imkoniyatlar va ularning nutqiy voqelanishi, lison nutq dixotomiyasi omili izchillik bilan tadbiq etib borilayotgan davr "Nutqda o'zga gapli qurilmalar sifatida ajratiladigan kiritmalar o'z lisoniy omiliga egami? "; "O'zga gapli qurilmalarni lisoniy imkoniyat va zarurat sifatida ajratish mumkinmi?", "O'zbek nutqidagi o'zga gapli qurilmalar tilimizda qanday lisoniy zaruratning voqelanish shakllaridir?" degan bir qancha savollarga javob berishni talab qiladi.

---

<sup>5</sup>Sharipov M. K. O'zbek tilida ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. – T.,1955.

<sup>6</sup>Abdullayeva D. Semantik- sintaktik valentlik va o'zga gapli qurilmalar. KDA.- Samarqand, 2001.

<sup>7</sup>Abdullayev A.B. Ko'rsatilgan asar. – B.12

Zeroki, nutqiy hodisalarni qancha mufassallik bilan ta'riflasamak, bu hodisalar zamirida yotgan lisoniy mohiyat ochilmaguncha tavsiflangan hodisalar mavhum va bir- biridan uzilgan bo'lib qolaveradi, narsaning mohiyati shu shu narsada mujassamlashgan bo'lsa ham boshqa birliklar munosabatidagina namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'zga gapli qurilmalar lisoniy mohiyatini ochish uchun o'zga gaplar bilan uzviy bog'langan, lekin ulardan tashqarida turgan hodisa- nutq fe'llariga murojaat qilish lozim, chunki barcha tadqiqotchilar yakdillik bilan tan olganlaridek, o'zga gap hamisha nutq fe'llari (ularning vazifadoshlari) bilan uzviy aloqadordir. Shunday yondashilganda o'zga gaplarni nutq fe'llari valentligining zaruriy obyekt aktanti deb baholash mumkin.

O'zga gapga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, o'zga gaplarning mohiyatini belgilashda so'zlovchidan ham, tinglovchidan ham uzilish, o'zga gap qurilish va buzilish rang- barangligi kabi xususiyatlarga nisbatan ham befarq bo'lish mumkin. Bu holda o'zga gaplar nutq fe'llari sintaktik valentlikni voqelantirish funksiyasida [W] atov birligi mavqeyida bo'ladi. Bu o'z navbatida o'zga gapli qurilmalar lisoniy qolipini [(W+ NF) = O'GQ] sifatida aniqlash imkonini beradi. Ma'lumki, bu atov birligi bitta so'zdan boshlab ulkan bir matnga teng bo'la oladi. Shu bois o'zga gaplar ham shunday xilma- xil qurilish va tuzilish rang- barangligiga egadir.

O'zga gaplar ularni talab etuvchi lidsoniy birliklar- nutq fe'llari bilan birgalikda o'zga gapli qurilmalarni hosil qiladi. Ularning alohida nutqiy xususiyatlari- o'zga gaplarning va nutq fe'llarining ifodalanish xususiyatiga ko'ra o'zga gapli qurilmalar xilma- xil tur va ko'rinishlatrga ega bo'la oladi.

Quyida o'zga gapli qurilmaalrning sintaktik ko'rinishlari aks ettirilgan:

1. a) W=so'z, O'GQ= sodda gap. Zafar kelishini aytdi.

b) W= soz birikmasi, O'GQ= yoyi yoki murakkablashgan qo'shma gap.

Zafar ertaga kelishini aytdi.

2. Qo'shma gap tarkibida: Zafar kelishini aytdi va hamma xotirjam bo'ldi.



Qurilma tarkibiy qismlari nafaqat grammatik, balki semantik jihatdan ham o'zaro bog'langan bo'ladi.

Professorlar A. Nurmonov, N.Mahmudovlar ko'chirma gapli qurilmalarni qo'shma gaplarning alohida turi ekanligini ta'kidlaydilar va o'z qarashlarini "O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)" kitobida bayon etadilar.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida ko'chirma gapli konstruksiyalar sintaksisiga oid bir qator tadqiqotlarning mavjudligiga qaramay ularning maqomi masalasida umumiylik yo'q.

## **1. 2. Qo'shma gap va ko'chirma gapli konstruksiyalar**

Ikki yoki undan ortiq komponentlar – sodda gaplar ning intonatsion va fikriy butunligidan iborat bo'lgan gaplar qo'shma gap deyiladi. Sodda gaplar uchun so'z birikmalari, gap bo'laklari baza sanalganidek, qo'shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materiallari hisoblanadi.

Sodda gap bilan qo'shma gap orasidagi ayirma gapning strukturasiga ko'radir. Sodda gap birgina konstruktiv birlikdan – yadrodan tashkil topgan bo'ladi – birgina konstruktiv markazga ega bo'ladi. Qo'shma gap esa bir- biri bilan uzviy ravishda bog'langan bir necha konstruktiv markaz bo'ladi. Qo'shma gap sintaktik birlikning eng yuqori formasidir<sup>8</sup>.

Qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar mazmun va intonatsiyasi jihatidan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Qo'shma gapning sostavidagi sodda gaplar grammatik tuzilish tomonidan ayrim olingan sodda gaplarga bir oz o'xshash bo'ladi: qo'shma gapning sostavidagi sodda gaplardagi kabi gap bo'laklarining

---

<sup>8</sup> Аскарлова М. Хозирги замон узбек тилида кушма гаплар. – Тошкент: УзССР, Фанлар Академияси нашриети, 1960.

ishtirok etishi, soʻz birikmalarining mavjud boʻlishi, ega, kesim munosabatining mavjud boʻlishi va boshqalar.

Qoʻshma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikmasidan tuziladi. Sodda gaplarni biriktirib, qoʻshma gap hosil qilishda turli vosita va usullardan foydalaniladi.

Koʻchirma gapli konstruksiyalarni qoʻshma gapni bir turi sifatida talqin qilish bizningcha, traditsion tilshunoslikda fikrni ifodalash uchun faqat “gap” termini mavjudligi bilan izohlanadi, chunki har qanday nisbiy tugal fikrni ifodalovchi parcha gap doirasiga kirishi lozim. Shunga koʻra, gapga nisbatan murakkabroq konstruksiyalar ham qoʻshma gap tushunchasiga kiritib kelinmoqda. Holbuki, ayrim konstruksiyalar, jumladan koʻchirma gapli konstruksiyalarni gap doirasida oʻrganish bu butunlikning oʻziga xos tomonlarini yoritishga imkon bermaydi. Shunga koʻra ayrim tilshunoslar koʻchirma gapli konstruksiyalarni qoʻshma gapning bir turi sifatida oʻrganishga qarshi chiqadi.

Avtor gapi bilan koʻchirma gap bir- biri bilan aloqador boʻlsa-da, uni qoʻshma gap konstruksiyasi komponentlari oʻrtasidagi munosabat bilan tenglashtirib boʻlmaydi. Koʻchirma gapning ayrim turlari qoʻshma gapga formal jihatdan oʻxshaydi, ammo ular sintaktik qurilishi, komponentlarining konstruksiyasi sostavidagi funksiyasi, intonatsion oʻziga xoslik va boshqa bir qator belgilari bilan qoʻshma gaplardan farq qiladi. Koʻchirma gaplarning toʻliqsiz formasi va oʻzlashtirma formalarining sodda gaplarga teng kelishini hisobga olsak, koʻchirma gapli konstruksiyalarni, umuman, qoʻshma gaplar doirasiga kiritib boʻlmasligi aniq.

Bu masalani yanada ravshanroq koʻrish uchun konstruksiyalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqli tomonlarni quyida bayon qilamiz.

Koʻchirma gapli qoʻshma gap bilan qoʻshma gapning boshqa turlari orasida maʼlum oʻxshash va farqli tomonlar bor. Qoʻshma gap birdan ortiq sodda gaplarning intonatsion va fikriy butunligidan iboratdir. Qoʻshma gapni tashkil etuvchi

komponentlar (sodda gaplar) mazmun va intonatsiyasi jihatdan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi. Ko'chirma gap ham avtor gapi bilan birga olinib ikki komponentning mazmuniy va intonatsion butunligini keltirib chiqaradi., qo'shma gapning bir turini tashkil etadi<sup>9</sup>. Lekin ko'chirma gapli qo'shma gaplar qo'shma gapning boshqa turlaridan ayrim xususiyatlari bilan farqlanib turadi

Ko'chirma gapning konstruksiyaning komponentlari ko'chirma gapning sodda yoki qo'shmaligidan qat'i nazar deyarli hamma vaqt ikki asosiy komponentdan – ko'chirma gap va avtor gapidan tashkil topadi. Qo'shma gaplar esa ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tashkil topadi.

Ko'chirma gapli konstruksiyalarda komponentlari tutashtiruvchi grammatik vositalar deyarli ishlatilmaydi, ularning sostavida nisbiy so'zlar qo'llanmaydi. Odatda ko'chirma gap bilan avtor gapini tutashtiruvchi bog'lovchi sanaladigan **deb, degan** kabi formalarni funksiyasiga ko'ra bog'lovchi emas ko'proq bog'lovchisiz qo'shma gap yoki to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bo'lib kelishi mumkin. **Deb** so'zi alohida qo'llanmay, **deb aytdi, deb gapirdi, degan** so'zi esa **degan edi** shakllaridagi qo'shma kesimlarga teng keladi.

Ko'chirma gapning komponentlari bir so'zdan tortib butun bir jumla, hatto monolog shaklida keladi: *Jo'ra darrov askarning yukini beldor eshakka chizimcha bilan bo'g'ladi- da, "xix" deb bir turtidi.*

Qo'shma gap komponentlari tuzilishi va mazmuniga ko'ra sodda gaplarga teng yoki ularga yaqin bo'ladi. Qo'shma gap sostavidan komponentlarni ba'zan alohida sodda gap shaklida qo'llash mumkin bo'lsa ham, ko'chirma gapli konstruksiya komponentlarini ajratib, alohida olib qo'llash deyarli mumkin emas. Avtor gapisiz kelgan o'zgalarning gapi ko'chirma gap emas. Masalan, *Zvonok chalindi va dars boshlandi* gapini ikkiga ajratsak, ma'lum darajada to'la mazmun ifodalovchi, ikki sodda gap hosil bo'lsa ham, ko'chirma gapni avtor nutqidan ajratib, ayniqsa, avtor nutqini ko'chirma gapdan ajratib (... *dedi Rais yoki Rais dedi* shaklida) ikki alohida

---

<sup>9</sup> Хозирги узбек адабий тили, 2- том, Т., Фан, 1966.

sodda gap shaklida ishlatib bo'lmaydi. Shunga ko'ra ko'chirma gapli konstruksiya komponentlarini qo'shma gapning ayrim turlariga (bog'lovchisiz qo'shma gapga) nisbatan zichroq birikkan deyish mumkin.

Ko'chirma gapli qo'shma gapda komponentlarning o'rnini ancha erkin bo'ladi: avtor gapi ko'chirma gapdan oldin, keyin, uning o'rtasida yoki ko'chirma gap avtor gapining orasida qo'llanaveradi. Qo'shma gap komponentlarining o'rnini esa bu darajada erkin emas. Avtor gapi ko'chirma gapning turli o'rinlarida kelishiga qarab undagi gap bo'laklarining tartibi o'zgaradi.

Avtor gapi ko'pincha ikki sostavli gapdan tashkil topgan bo'lib, uning kesimi so'zlash, gapirish harakati bilan bog'liq bo'lgan fe'llar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan u to'ldiruvchi ergash gapga yaqin turadi. Lekin bog'lovchilar ishtirok etmagani uchun ularni bog'lovchisiz qo'shma gapning bir turi hisoblash mumkin.

Ko'chirma gapli konstruksiyalarda ikki shaxsning – avtorning va personajning gapi bog'lovchisiz birlashtirilgan bo'ladi.

Bunday gaplarda intonatsiya ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ko'chirma gap qanday ohang bilan aytilgan bo'lsa, avtor uni shundayligicha aytishi kerak: ko'chirma gap darak mazmunini bildirsa, darak intonatsiyasi bilan; so'roq intonatsiyasi bilan; buyruq yoki undov mazmunida kelsa, kuchli intonatsiya bilan aytiladi. O'zganing gapida undalma, kirish so'z yoki undovlar qo'llangan bo'lsa, ular ham aynan hech o'zgarishsiz beriladi:

*Xo'sh, qanday yangiliklar bor? – dedi O'ktam. (Oybek.)* bog'lovchisiz qo'shma gap yoki to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bo'lib kelishi mumkin.

### **1.3. O'zga shaxsni ifodalash usuliga ko'ra ko'chirma gapning turlari**

Ma'lumki, sovet davrida o'zbek tilining sintaktik qurilishida, uning boshqa sathlarida bo'lganidek, bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunday o'zgarishlarni

ko'chirma gapli konstruksiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaktik sistemasidan O'BKGlarning mustahkam o'rin olishi ham ana shunday o'zgarishlardan biri sanaladi. Olimlarning aniqlashicha, o'zga gapning ifodalashning uch turi (ko'chirma gap, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap, o'zlashtirma gap) dan eng qadimgisi ko'chirma gap hisoblanadi. Eski o'zbek tilidagi yozma manbalardan ko'chirma gapni matnga, avtor bayoniga kiritishda asosan, *demoq* va *aytmoq* fe'llaridan foydalangan<sup>10</sup>. O'rxun- Enisey va qadimgi uyg'ur yozma yodgorliklarida o'zlashtirma gap konstruksiyalari umuman uchramaydi. Ozarbayjon tilshunosi A. Sh.Sodiqov ko'chirma gapli konstruksiyalar o'zga gapning eng qadimgi turlaridan bo'lib, ular "Kitobi Dodu Qo'rqu" asarida, Muhammad Fuzuliyning prozasida keng tarqalgani haqida misollar yordamida tushuntirib beradi. Bu fikrlar bevosita o'zbek tiliga ham taalluqlidir, eski o'zbek tilida ham ko'chirma gapli konstruksiyalar o'zlashtirma gapga nisbatan ancha oldin qo'llana boshlangan.

### 1.3.1. Sof ko'chirma gap

Ko'chirma gapdagi mazmun suhbatdoshga (tinglovchiga) qaratilgan bo'ladi. Ko'chirma gap bir so'z, bir gap yoki bir necha gap, ba'zan butun bir jumla shaklida berilishi, shuningdek, u bir sostavli yoki ikki sostavli birgina sodda gaplardan tuziladi. U qo'shma gap shaklida yoki bir sostavli sodda gap holida deyarli qo'llanilmaydi. Ko'chirma gapning kesimi fe'l, ot yoki boshqa so'z turkumlari bilan ifodalansa, avtor gapining kesimi hamma vaqt **sof fe'l** orqali ifodalanadi.

Quyidagi fe'llar ko'pincha avtor gapining kesimi bo'lib keladi.

1) gapirish, so'zlash ma'nosini ifodalovchi fe'llar: **dedi, aytdi, so'zladi, gapirdi, murojaat qildi** va boshqalar. Misol: *U brigada a'zolarini yig'ib otashin so'zladi: - G'o'zamizning bir tupini ham nobud qilmaymiz. (Sh. Rashidov);*

---

<sup>10</sup> Назаров Х. Эски узбек езма едгорликларида кучирма гапларнинг кулланилиши, - Т: 1959, 9-11- бю

2) so'zlash ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan turli holat (manera)larni ko'rsatuvchi fe'llar: **qichqichdi, pichirladi, buyurdi, undadi, ogohlantirdi, telefon qildi**. Misol: *Yigit uning ismini eslay olmay "agronom aka!" deb qichqirdi.*(Oybek );

3) oldingi fikr bilan bog'liqlikni ifodalovchi fe'llar: **javob berdi, bo'ldi (gapni bo'ldi), davom ettirdi** va boshqalar. *Sakson ota uning gapini bo'ldi: - Umr shomiga yetsak ham yurakda o'timiz bor...*(Oybek);

4) so'roq mazmunini ifodalovchi fe'llar: - **Qalay, bu yil paxta planini bazarasizmi? – so'radi O'ktam.**

Ko'chirma gap o'ziga xos bo'lgan bir qancha grammatik xususiyatlarga ega:

1) mazmunidan buyruq anglashiladigan ko'chirma gapda ko'pincha undalma ishtirok etgan bo'ladi va undalmali gapning fe'l kesimi buyruq mayli formasida keladi.

*"O'g'lim, yaxshisi shulki, - dedi Sakson ota qo'lini siltab, - qolgan ishga qor yog'ar degan qadimgi so'zni unutma "* (Oybek)

Ko'chirma gap doim bayon qilingan fikrnigina bildiradi bermay, bayon qilinmagan, aytilmagan, faqat o'ylangan- taxmin qilingan fikrni ifoda qilishi ham mumkin. Real aytilmagan fikrni ifodalovchi bunday gaplarda avtor gapining kesimi **o'yladi, dedi ichida, dedi o'ziga-** o'zi kabi shakllarda ifodalanadi.

Bayon qilingan, aytilgan (real ) ko'chirma gaplar fikrning suhbatdoshga, tinglovchiga qaratilganligiga ko'rsatsa, bayon qilinmagan, aytilmagan (irreal) fikrni ifodalovchi ko'chirma gapdagi mazmun suhbatdoshga emas, ko'chirma gapdagi so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'ladi: *Kolxoz yerining etagida yangi ochilayotgan yerga keta turib, o'yladi ichida u: "Vatanni ofat taxlikaga solganda, qari- qartanglar ham so'nggi kuchlarini bilakka yig'ib fidokorlik ko'rsatadilar..."* (Oybek.)

Ba'zan ko'chirma gap aytilmagan, o'ylangan ham emas, faqat yozilgan fikrni ifodalaydi: *"Oyqiz ayvondagi stolgaqog'oz, qalam chiqarib, Olimjonga xat yozdi "... qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish to'g'risida Smirnov doklad qildi... Uning*

*samimiy so'zlari hammaning yuragiga va ongiga yetib borar edi... Shuning uchun bu so'zlar byuro a'zolarini darrov qiziqtirdi..."*

Turli stilistik talabga ko'ra ko'chirma va avtor gaplarining o'rinishi (o'rni) har xil bo'ladi:

1) ko'chirma gap avtor gapidan oldi keladi. Bunda avtor gapidagi gap bo'laklari inversiyaga uchrab, kesim sostavi oldin, ega sostavi keyin qo'llanadi: *To'g'ri, qoloqdan cho'loq yaxshi, - dedi qovog'ini solib Dilshod. (Oybek.)*

Ko'pincha, **dedi, deydi, der edi, degan edi, deb aytdi, so'radi, gapirdi, so'zladi** kabi fe'llar avtor gapining kesimi bo'lib keladi. Bu o'rinda **dedi** fe'li asosiy rol o'ynaydi.

2) ko'chirma gap avtor gapidan keyin keladi. Bunday vaqtda ko'pincha avtor gapining kesimi **aytdi, so'radi, javob berdi gapirdi, dedi** kabi fe'llar orqali ifodalanadi. Ba'zan **pichirladi, o'yladi** kabi bevosita gapirish bilan bog'lanmagan fe'llar ham avtor gapining kesimi bo'lib kelishi mumkin.

*Brigadir boshini ko'tarib yolvorgudey **gapirdi**: - Odam kerak, O'rtoq Umrzoqova! Quradigan bo'lsak, brigadamizni mustahkamlash zarur. Rais bolsa epchil quruvchilarimizni boshqa ishga jo'natdi. (Sh. Rashidov.)*

Avtor gapi ko'chirma gapdan oldin kelganda undagi gap bo'laklarini tartibi normal – odatdagi holda bo'ladi.

Ko'chirma gap avtor gapidagi **bunday, shunday** kabi so'zlarning mazmunini konkretlashtirib kelishi mumkin. Bu vaqtda avtor gapining kesimi bilan bunday, shunday so'zlari orasida **deb** yordamchisi qo'llanadi. Bu so'zlar bo'lmasa, deb yordamchisi qo'llanamaydi: *O'rtoq Xrushchev **bunday deb** ta'kidladi: "Gap, avvalo, kadrlarda. Ulaning kolxozchilarni va sovxoz ishchilarini uyushtira bilishlarida va o'zlariga ergashtirib bora olishlaridadir". (Gazetadan.)*

3) ko'chirma gap turli stilistik, sintaktik talabga ko'ra, avtor gapining o'rtasida kelishi mumkin. Bunday hollarda avtor gapining ega sostavi ko'chirma gapdan oldin, kesim sostavi esa ko'chirma gapdan keyin keladi. Ayrim vaqtda kesimga tegishli to'ldiruvchi yoki hol ko'chirma gapdan oldin kelishi ham, mumkin. Lekin kesimning o'zi doimo ko'chirma gapdan keyin qo'llanadi. Unga qarashli hol yoki to'ldiruvchi esa, ko'pincha kesimdan keyin keladi: *Sayramov cholni ikki qo'li bilan yengil, lekin samimiy ravishda sekin quchoqlab: - "Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, bilaman, ota",- dedi. (Oybek)*

4) ko'chirma gap avtor gapining har ikki tomonida kelganda avtor gapidagi bo'laklarning (gap bo'laklarining) tartibi ko'pincha anormal – inversiyaga uchragan holda (kesim sostavi oldin, ega sostavi keyin keladi) bo'ladi: – *Juda to'g'ri, haq gap, - dedi boshi bilan tasdiqlab Boltaboyev, - hamma yutuqlarimiz birlik orqasida kelayotir. (Oybek.)*

#### Ko'chirma va o'zlashtirma gap.

So'zlovchi hamma vaqt o'zini fikrinigina bayon qilib qolmay, o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida berishi mumkin. Bu vaqtda ham so'zlovchining o'ziga xos bo'lgan fikri ham boshqalarga xos bo'lgan gap – o'zganing gapi keltirilib qo'shma gapning bir turi hosil qilinadi.<sup>11</sup>

O'zganing gapi ma'lum shaxsning fikrini avtor (hikoya qilib beruvchi) ning gapi orqali ifodalanishidir. O'zganing gapini bayon qilib beruvchi shaxs – *avtor*, uning gapi *avtor gapi* deyiladi. Kimning gapi ifoda qilinayotgan bo'lsa, u *so'zlovchi* sanaladi.

Ayrim vaqtlarda avtorning gapi ham ko'chirilib, o'zganing gapi shaklida berilishi mumkin. Bunda uning fikri o'zganing gapi va avtor gapini biriktiruvchi grammatik vositalar orqali bog'langan bo'ladi.

---

<sup>11</sup> Аскарлова М. Хозирги замон узбек тилида кушма гаплар. –Т.; УзССР ФА, 1965.



Misollar:

*Men nima qilishimni bilmay:*

- *Bu yerda nima qilib yuribsiz?- dedim.*

*Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zorayki darmon bo'lsa deb kutdim. (A. Qahhor.)*

U yoki bu shaxsning gapi doim o'zganing gapi shaklida kela bermasdan, qushlar, hayvonlar yoki ba'zan predmetlarning tovushi yoki ularga qilingan muomala ham birovning gapi holida ko'chirilib berilishi mumkin: *Jo'ra darrov askarning yukini olib, hachirday katta, tuki yiltiragan, beldor eshakka ildam ortib, chizimcha bilan bog'ladida, "xix" deb bir turtdi va o'zi elat bilan suhbatlashib, piyoda ketdi. Haligina pashsha "g'ing" desa eshitiladigan jimjit hovli qiy- chuvga to'ldi. Ashirmat "shish- shish" deb eshagini to'xtatdi. (Oybek.) Faqat buxgalteriya joylashgan xonadan cho't tovushi eshitilar edi: "shaq- shuq".*

O'zganing gapi turli xilda beriladi. Bularning asosiy tiplari 3 xil: 1) ko'chirma gap; 2) o'ziniki bo'lmagan- o'zga ko'chirma gap; 3) o'zlashtirma gap.

1. Boshqalarning (o'zganing) fikri yoki gapidagi semantik, leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlar sanalib, mustaqil gap shaklida avtor gapi bilan birga ifodalansa, *ko'chirma gap* deyiladi. Paxta davlatli turmush demakdir, shuning uchun ham kuchlarimizga zo'r berishimiz kerak,- dedi Jo'raboyev (Sh. Rashidov.)– Xo'sh, qanday yangiliklar bor? – dedi O'ktam. (Oybek.) Ko'chirma gap avtor gapi bilan birga qo'llanadi. Avtor gapi ko'chirma gapning kimga qarashli ekanligini ko'rsatadi.

2. Ayrim vaqtda o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'idagi bir holatda beriladi. Bunda o'zganing fikri avtor gapisiz ko'chirilgan holda, so'zlovchi (personaj) ishtirok etmasdan bayon qilinadi; ya'ni avtor kop'chirma gapdagi so'zlovchi sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun ham bunday gaplar **o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar** hisoblanadi. *Sultonov senga ta'na qiladi-yu, biroq o'zini o'ylaydi. Ish kam bo'lsa-yu, shuxrat ko'p bo'lsa...mana asl maqsadiqayerda.*

(Sh. Rashidov.) Bu gapda ko'chirma gapning so'zlovchisi (Sultonov) nomidan avtorning o'zi gapiradi. Uning gapi – ish kam bo'lsa-yu, shuhrat ko'p bo'lsa – hech o'zgarishsiz semantik, grammatik, leksik xususiyatlari deyarli saqlangani holda keltiriladi. Bu tomondan u ko'chirma gapga o'xshaydi. Lekin bu gap kimga xos ekanligini ko'rsatuvchi avtor gapining bo'lmasligi bilan ko'chirma gapdan farq qiladi.

Avtorning gapi to'la bo'lmasligi bilan o'zlashtirma gapga o'xshasa ham, gapning grammatik , leksik xususiyatlari ma'lum darajada saqlanganligi bilan undan farq qiladi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap o'zlashtirma gap bilan ko'chirma gap oralig'idagi sintaktik birlikdir.

O'zganing gapidagi mazmunni saqlab, grammatik, leksik, sintaktik xususiyatlari o'zlashtirilib, berilsa, o'zlashtirma gap deyiladi. O'zlashtirma gapda o'zganing fikri yoki gap formasi o'zgartirib, mazmuni saqlangani holda hikoya qilib beriladi.

### **1.3.2. O'ziniki bo'lmagan – o'zga ko'chirma gap**

Turkologiyada o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Biroq O'BKG mavzusi turkologiyadagina emas, balki o'zbek tilshunosligida ham maxsus o'rganilgan emas. O'zbek tilshunosligida ilk bor “o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap” termini A. G'ulomov va M. Asqarovalarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis)”. nomli darsligida tilga olingan. “Ba'zan o'zganing gapi, - deb ham ta'kidlanadi bu darslikda, - ko'chirma gap va o'zlashtirma gap oralig'idagi holatda bo'ladi. Bunda o'zganing gapi avtor gapisiz – so'zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya'ni avtor ko'chirma gapdagi so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap

hisoblanadi”<sup>12</sup>, shuningdek, darslik avtorlari O’BKGLar ko’proq badiiy asarlarda uchrashini, bunda avtor personaj tilidan gapirishni aytadi va quyidagi misollar keltiriladi: *Rais keng kabinetda bir o’zi qoldi. U shilq etib divanga tashlandi- da, a’zoyi badani bo’shashib ketganday bo’ldi... mana endi uzoq davr ichoida qilingan gunohlar uchun javob berish vaqti keldi. Hozirgacha sen bu payt to’g’risida o’ylab ham ko’rmagan eding, Qodirov. Umumxalq mehnati va g’alabasini o’zingga o’zlashtirib, o’zingniki qilib ko’rsatarding. Bu ishing tasodifiy emas, albatta. Sen o’zingni sevib, o’zingga bino qo’yar eding. Bilganing bilgan, qilganing qilgan eding. Faqat – faqat o’zingga ishonarding...(Sh. Rashidov.). Rais har qachon kolxoz g’alabalari to’g’risida taltayib gapirganda, Oyqiz ich – ichidan hursand bo’lardi, chunki bu g’alabalar Oyqizning haq ekanligidan dalolat berardi. Mayli, Qodirov kolxoz g’alabalarini sanar ekan, istagancha o’ziga zeb bersin, barcha yutuqlarni o’z nomi bilan bog’lasin, boshqalarning halol mehnatini hiyla- nayrang bilan o’zlashtirsin, mayli shuhrat qididishni kasb qilib olsin...(Sh. Rashidov.) Rais tirishgan peshonalarini uqalab, nimalarnidir o’ylashga intilardi- yu, ammo nimaki o’ylasa, fikridan ko’tarila berar edi. Oyqiz ayvondagi stolga qalam- qog’oz chiqarib, Olimjonga xat yozish uchun o’ylanib qoldi. Uzoq o’ylab, byuroning tafsilotlarini esga oldi – axir eriga yozilayotgan hamda biror voqeani ham tushirib qoldirish mumkin emas- ku! (Sh. Rashidov.) Axir murakkab va mas’uliyatli ishga qadam qo’yilar ekan, oqibati to’g’risida ham o’ylash kerak-da. (Sh. Rashidov.)*

Misollarning birinchisida personaj rais o’rnida, ikkinchisida Oyqiz o’rnida avtorning o’zi gapiradi. Uchinchisida va to’rtinchisida esa avtor voqelikka o’z munosabatini bayon qiladi. Bunday gaplar o’ziniki bo’lmagan – o’zga ko’chirma gap hisoblanadi.

Keyinchalik M.Asqarova O’BKGGa oid bunday qarashlarini “O’zbek tili grammatikasi” nomli tadqiqotida yanada rivojlantirdi hamda “o’ziniki bo’lmagan

---

<sup>12</sup> Гуломов А., Аскарова М. Хозирги узбек адабий тили (синтаксис), - Т; 1965.

ko'chirma gap o'zlashtirma gap bilan ko'chirma gap oralig'idagi sintaktik birlikdir"- degan fikrni ilgari surgan<sup>13</sup>.

O'BKG konstruksiyalari boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham o'zga gapni ifodalashning eng yaxshi, eng yorqin formalaridan biridir. Keyingi yillarda bu forma o'zbek yozuvchilari tomonidan qahramon ichki kechinmalarini yoritishda keng qo'llanilmoqda.

O'BKG o'zga shaxs fikrini ifodalash yo'llaridan biridir. Shunga ko'ra u, ayrim xususiyatlari bilan ko'chirma gapga, boshqa xususiyatlari bilan o'zlashtirma gapga o'xshaydi. O'BKG odatdagi ko'chirma gap singari so'zlovchining nutq uslubiga xos bo'gan ekspressivlik xususiyatlarini o'zida aks ettira oladi. Lekin O'BKG ko'pgina xususiyatlari bilan o'zlashtirma gapga yaqin turadi. U o'zlashtirma gap bilan shunday yaqinki, ikkalasi ham o'zgalarning nutqini aynan o'z holicha emas, balki ma'lum struktural o'zgarish bilan ifoda etadi. Shuning uchun ham O'BKGni "erkin o'zlashtirma gap" deb baholash mumkin. O'rni kelganda Muhammadjon Iminov "O'zlashtirma gap bormi?"<sup>14</sup> maqolasiga murojaat etmoqchimiz.

Maqolada to'g'ri ta'kidlanganidek, "Tilshunoslikdagi nazariy nuqsonlar leksikda ham, so'z yasalishi va morfemikada ham, morfologiya va sintaksisda ham mavjud bo'lib, ular o'zining yangicha idrok etilishi va talqinini kutmoqda". Muallif o'zbek tilshunosligida "ko'chirma va o'zlashtirma gap" haqidagi qarashlarini real hayotdan, obyektiv haqiqatdan yiroq yoki ilmiy- nazariy asoslari yetarli bo'lmagan masalalar qatoriga kiritadi. Shundan so'ng muallif maqola davomida "Ho'sh, biz ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantiramizmi?" degan savol bilan murojaat qiladi. Bu savolga javob berish uchun "Menga Salimjon: "Bugun men kinoga boraman",- dedi" gapini tahlil qilishga intiladi. Avtorning fikricha, ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantiriladigan bo'lsa,unda mana bunday hol ro'y beradi: "birinchi so'zlovchining gapi (kinoga boraman) ni tinglovchi avtor gapi sifatida

---

<sup>13</sup> Узбек тили грамматикаси, II томлик, 2- том, -Т: Ф., 1976, 461- б.

<sup>14</sup> Иминов М. Узлаштирма гап борми? Узбек тили ва адабиетиб 1990, 3- сон, 60- б.

(ikkinchi so'zlovchi bo'lib) ikkinchi tinglovchi (uchinchi kishiga ) ko'chirma gap shaklida yetkazadi. Bu ko'chirma gapni ikkinchi avtor tinglovchiga qaytadan o'zlashtirma gap shaklida uzatadi. Hayotda kommunikatsiya jarayonida bunday bo'lishi mumkin emas.

Maqola muallifi eshitganni yangi informatsiya uzatish, asosan, ikki formada axborot (oddiy gap) va ko'chirma gap formasida bo'lishini isbotlashga urinadi. Maqola so'nggida M. Iminov quyidagi xulosaga kelgan:

1.O'zga gap (ko'chirma gap) deb atalgan forma eshituvchi uchun o'zga gap ham, ko'chirma gap ham emas, balki oddiy axborotdir.

2.Eshitilgan gap boshqa shaxsga uzatilgandagina avtor gapi qo'shilib ko'chirma gap tusini olishi mumkin. Agar bu gapda ifodalangan fikr qayta eslab tilga olinmasa, u "o'lik" axborotligicha qoladi, basharti, mazmuni birovga yetkazilsa, o'zlashtirma gap holida emas, axborot haqida axborot sifatida namoyon bo'ladi.

3.Ko'chirma gap hech qachon o'zlashtirma gapga aylantirilib o'zgaga o'zlashtirilmaydi.

4.Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish va uning variant usullarini ko'rsatish mantiqsiz va asossizdir.

5.O'zbek tilida o'zlashtirma gap butunlay yo'q. "O'zlashtirma gap" va uning formalari ona tili darsligidagina bor, xolos. "O'zlashtirma gap" yo'qligi tufayli bu termini ishlatish ham o'rinsizdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, biz biron joyda (ilmiy, badiiy asarlarda) o'zlashtirma gapni uchratmaymiz.

Maqolada dadillik bilan o'zlashtirma gap haqidagi masalani ko'tarib chiqilishini ma'qullash lozim. Lekin maqolada olg'a surilgan fikrlar yetarlicha dalililanmagandek ko'rinadi. M. Iminov o'zga gap turlaridan faqat ko'chirma gapni tan oladi, o'zga gapning uchinchi turi – o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap haqida hech qanday fikr bildirmaydi. Balki tilshunoslikda "o'zlashtirma gap"termini noo'rin qabul qilingandir, chunki ruscha "косвенная речь" tarjima qilinsa, "nisbiy nutq" deb tushuniladi. Shuning uchun ko'chirma gapli konstruksiyalarni o'zbek

tilshunosligida maxsus tadqiq etgan professor A. Abdullayev o'z ishlarida "o'zlashtirma gap" termini o'rniga "assimilyatsiyalashgan nutq" terminidan foydalanadi, o'z navbatida ko'chirma gap avtor tomonidan "assimilyatsiyalashmagan nutq deb yuritiladi".<sup>15</sup> Demak, o'zbek tilshunosligida terminologik chalkashliklarga barham berish, lingvistik hodisalarni o'zbek tilining o'z tabiatidan kelib chiqib chuqur tadqiq etish zarur.

Shohida Siddiqovanning "Nutqiy muloqotda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar" maqolasi to'g'risida.

Maqola muallifi to'g'ri ta'kidlaganidek, so'zlovchi yoki yozuvchi ba'zan fikr ifodalashda o'ziniki bo'lmagan o'zga gaplardan ham unumli foydalanadi. O'zgalarning gapi so'zlovchi tomonidan nutqiy vaziyat, nutq qaratilgan shaxs bilan bog'liq xususiyatlarni hisobga olgan holda hech o'zgarishsiz yoki mazmuni saqlangan holda qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek muallif zamonaviy tilshunoslikda nutq ifodalashning ko'chirma gap, o'zga gap va o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap kabi turlari borligini ta'kidlab, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar haqida fikr yuritadi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning avtor nutqi bilan umumiy va o'xshash tomonlari mavjud. Masalan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap formal jihatdan avtor nutqiga o'xshaydi. Ammo u butunlay avtor nutqi emas, ayni vaqtda u to'la ma'noda asar qahramonining nutqi ham emas.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap so'zlovchiga ya'ni avtorga ikki xil imkoniyat beradi: a) qahramonning nutqini individuallashtirish; b) qahramon nutqida ifodalangan fikrga avtorning munosabatini bildirish.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar tuzilishining grammatik usullari xilma-xildir. U to'liq gap yoki abzast, shuningdek ayrim so'zlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

---

<sup>15</sup>Abdullayev A.B. Ko'rsatilgan asar.

O'zga gapning boshqa turlari (ko'chirma gap, o'zlashtirma gap)dan badiiy asarlardan tashqari og'zaki so'zlashuv nutqida, ilmiy uslubda ham foydalaniladi. Ammo o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap esa ko'proq badiiy va publitsistik asarlarda hamda kino san'atida foydalaniladi. Chunki badiiy ijodda san'atkor o'zi tasvirlayotgan personajning "qalb dialektikasini" ravshan yoritish uchun uning hayolida bo'layotgan tushunchalarga, ichki kurashlarga, qayta jonlanayotgan voqealarga ham murojaat qilinadi: personaj bu o'rinda tili bilan emas, dili bilan gapiradi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda avtor personajning o'yini, xayolini, armonini, orzu- tilagini chetda turib tasvirlovchi shaxs sifatida emas, balki personaj bilan o'z boshidan kechiruvchi, bevosita ishtirok etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, asosan, personaj nutqining mavqeyi avtor nutqining mavqeyiga nisbatan ustunlik qiladi. Masalan: *Yo, tavba! Xalq ming yil o'ylab bitta gapni aytarkan. "O'g'ri qarisa so'fi bo'ladi", deyishsa ishonmasdim. To'ppa- to'g'ri ekan. Bu kishim endi "xudojo'y" bo'lib qoldilar. Besh vaqt berkitiqcha namoz o'qiydilar. Nima? Qilgan gunohlaringni yuvmoqchimisan? Yo'q, ayb ish qilgan odam gunohini odamlar oldida yuvadi, aqalli es- hushini yig'ib, boshqa ayb qilmaslikka urinadi! Sen- chi? O'shanda bug'doyzor chetidagi sada tagida hamma sening yuzingga tuflaganida men achingandim!(O'. Hoshimov, "Ikki eshik orasi",451- bet).*

*Bilardim! Ko'nglim sezgan edi. Umar aka zakunchi o'g'limni surishtirmasligini bilardim. Ammobunchalik bo'lishiga aqlim yetmagan ekan. Har qanday bag'ritosh odamda ham aqlli jinday mehr bo'ladi. Har qanday uyatsiz odamda ham zig'ircha andisha bo'ladi.bunda yo'q ekan! Na unisi, na bunisi!... shuncha yildan beri ko'zlarim teshilib ketgan bolamni bir kunga sig'dirmadi-ya! (O'. Hoshimov, "Ikki eshik orasi",450- bet).*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, bayon qilinayotgan fikr pesonaj nutqining avtor nutqi bilan uzviy bog'lanishi natijasida yuzaga chiqmoqda, aks holda

personajlarnig xayoliy nutqida yuzaga kelgan fikrlar haqida kitobxonda to'liq tasavvur bo'lmay qolishi ham mumkin.

Ma'lumki, ko'chirma gapda o'zgalarning nutqi hech qanday o'zgarishsiz berilsa, o'zlashtirma gapda o'zgalarning nutqi structural- grammatik o'zgarishlarga uchraydi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda esa bir vaqtning o'zida avtor ham asar qahramoni ham birdaniga gapiradi, boshqacha aytganda, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda asar qahramonining fikri, taassuroti hamda ichki kechinmalari u eslayotgan, tilga olayotgan shaxs nutqi to'liq yoki qisman bo'lsa-da, asar qahramonining o'z ifodasi bilan beriladi. Masalan: *Saida hayron bo'ldi: "Nega bu meni hadeb janjalga tutayotibdi? Nahot shu g'azab, shu zaharli gaplar faqat nafsoniyat oqibati bo'lsa? Yo Umidjon masalasiga biron narsa qo'shildimikan?" nima bo'lganda ham uning g'azabi alanga olishiga bahona bo'ladigan biron so'z aytishni istamadi.* (A. Qahhor., "Sinchalak".)

Keltirilgan misolda personaj (Saida)ning o'y-xayollari va kechinmalari "Nega bu meni hadeb janjalga tortayotibdi?" "Yo Usmonjon masalasiga biron narsa qo'shildimikan?" singari o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar yordamida bayon qilingan.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap o'zga gapning alohida, mustaqil bir turi hisoblanadi. Chunki unda qahramon nutqining o'zlashtirma gapga xos bo'lmagan o'ziga xos ohang, emotsionallik kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi. Masalan: quyida keltirilgan ikki nutq parchasini solishtiramiz.

O'zlashtirma gap. a) avtor nutqi: - Keling, o'rtoq Beknazarov,- *deya turgan joyida qo'l uzatdi.* (Sh. Xolmirzayev. "Yo'lovchi"). – Nima deysiz? – *dedi azbaroyi nimadir deyishi kerak bo'lgani uchun ham.*(N. Otaxonov. "Oq bino oqshomlari").

b) o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap: "*Nima bo'lyapti o'zi? Bu tentak Otaqo'zi nima qilyapti? Nega bunchalik hovliqib ketdi? Axir, chinakam insofsizlik- ku, bu!*" (O. Yoqubov. "Diyonat").



Bundan tashqari o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar leksik, emotsional-intonatsion xususiyatlari jihatidan ham o'zlashtirma gapga nisbatan sof ko'chirma gapga yaqin turadi. Lekin bu xususiyatlar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni odatdagi ko'chirma gapning boshqacha bir ko'rinishi deb hisoblashga imkon bermaydi. Chunki odatdagi ko'chirma gapda asar qahramoni so'zlasa, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda essa bir vaqtning o'zida avtor ham, asar qahramoni ham gapiradi. Binobarin o'zga gapning bu turi ko'chirma gap bilan avtor gapidan ajralib turadi.

Ba'zan shunday holatlar uchrab turadiki, to'siqsiz gap yoki ayrim so'z va jummalarning takrorlanishi ham mazkur kontekstda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning mavjudligidan dalolat beradi. Masalan: *“Ali Qushchi qo'lidagi mash'alani boshi uzra ko'tarib g'orning ichkariga yurdi. Mana zimiston lahm chapga burilib pastda qora **tuynuk** ko'rindi... **Tuynukka sandiq sig'adimi, yo'qmi? Sig'adi! Faqat turtib chiqqan tosh qirralarini sal chopish kerakdir**”* (O. Yoqubov. *“Ulug'bek xazinasi”*). *Ha, bu ovqat, non, chinni ko'zachadagi boda – hammasi **zaharlangan!** Hammasiga og'u solingan! Niyatlari uni **zaharlab o'ldirmoq** dedi Mirzo Ulug'bek, dedi-yu hayoliga bir fikr kelib ma'yus jilmaydi: “Alhol unga baribir emasmu?”* (O. Yoqubov. *“Ulug'bek xazinasi”*).

Shuningdek, bu misollarda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni ko'rsatuvchi boshqa misollar ham mavjud; qahramonning nutqiga xos bo'lgan so'z va ifodalar avtor nutqidagi elementlarga nisbatan ancha ustunlik qiladi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap yuqoridagi xususiyati avtorning qahramon nutqiga bo'lgan munosabatini mohirlik bilan singdirib yuborish imkoniyatini ham beradi. Bunday hollarda qahramon tomonidan bayon qilinayotgan fikrga avtorning o'z munosabatini bir muncha yashirin holda berish imkoniyati tug'iladi. Avtor o'z qahramonining fikriga qo'shilishi yoki qo'shilmasligini, unga nisbatan kesatish, salbiy munosabatini ham o'ziga xos ohang bilan singdirib yuborishi mumkin.

Bu xususiyat o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni o'zga gap tarkibidagi boshqa gaplardan ajratib turuvchi o'ziga xos muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Umuman, bularning hammasi kitobning ko'z o'ngida konkret fakt sifatida namoyon bo'ladi va sezilarli taassurot qoldiradi. Shuning uchun ham hozirgi zamon badiiy adabiyotida o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap formalarini qo'llash yozuvchi va shoirlarning eng xush ko'radigan usullaridan biri bo'lib qoladi.

### 3. 3.3. O'zlashtirma gap

O'zgalarning gapi o'zlashtirma gap shaklida berilishi ham mumkin. Bunda avtor boshqalarning gapini grammatik va ayrim leksik xususiyatlarini o'zgartgan holda o'zlashtirib, hikoya qilib beradi. O'zlashtirma gap ko'chirma gapdan intonatsiyasi va ayrim fe'l formalarining ishlatilmasligi bilan ham ajralib turadi. Ko'chirma gapda juda ko'p qo'llanadigan **demoq** fe'lining, **deb**, **dedi**, **deydi degan edi** kabi shakllari o'zlashtirma gapda deyarli qo'llanmaydi. Uning o'rnida o'zlashtirma gapda ko'proq **aytmoq**, **gapirmoq** fe'llari ishlatiladi.

Masalan, Astaxov chol bilan gaplashishni ko'pdan buyon orzu qilganligini, lekin qo'li tegmaganligini gapirdi. (Oybek.)

Ushbu misolda Astaxov aytdi – avtor gapi, chol bilan suhbatlashishni ko'pdan buyon orzu qilgani, lekin qo'li tegmaganini o'zganing gapidir. Buning ko'chirma gap shakli quyidagicha: Astaxov aytdi: - Chol bilan suhbatlashishni ko'pdan beri orzu qilaman, lekin qo'lim tegmaydi (yoki Astaxov: “Chol bilan suhbatlashishni ko'pdan beri orzu qilaman, lekin qo'lim tegmaydi”, - dedi ).

Ko'chirma gap ikki yoki undan ortiq gaplarning mazmunan birikuvi yoki mustaqillikni saqlagan holda qo'shilishidan tashkil topsa, unda necha gap borligidan qat'iy nazar o'zlashtirma gap birgina sodda gapdan tuziladi. Avtor gapining bosh bo'laklari (ba'zan ikkinchi darajali bosh bo'laklari ham ) saqlanib, ko'chirma gap birikmali to'ldiruvchiga aylanadi.

- *Har soatni g'animat bil, - dedi "Sakson" ota. (Oybek.) Bu ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirsak, ikki gap (1. Sen har soatni g'animat bil. 2. "Sakson" ota dedi) bir sodda gapga (ko'chirma gap birikmali to'ldiruvchiga) aylanadi: "Sakson" ota har soatni g'animat bilish kerakligini aytdi.*

Ko'chirma gap birdan sodda gapdan tashkil topgan bo'lsa ham, ularning har biri birikmali to'ldiruvchini tashkil topadi. Agar ergashgan qo'shma gap ko'chirma gap formasida berilsa, ko'pincha ergash gap (shart, ravish, to'siqsiz, daraja- miqdor, payt, o'xshatish kabi) o'zgarmay, bosh gapgina o'zlashtirma gap shaklini oladi. Shunday bo'lsa ham, qo'shma gapning mazmuni o'zlashtirib berilgan bo'ladi: 1) hamma ko'saklar pishib bersa, ishimiz yirik. Mabodo kuz yomon kelsa, ishimizning beliga tepadi, - dedi u. (Oybek.)

Ushbu gapning o'zlashtirma formasi: 1) *U hamma ko'saklar pishib bersa, ish yirik bo'lishini, mabodo kuz yomonlik qilsa ishning beliga tepishini aytdi.*

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirishda uning formasinigina emas, ba'zan sitilistik xususiyatlari ham o'zgaradi. Ayniqsa, so'zlovchining nutq protsessiga turli munosabatini ifodalovchi so'zlar, ekspressiv xarakterdagi so'zlar (ayrim kirish so'zlar, undovlar va boshqalar) ko'pincha tushib qoladi. Undov gap, atov gap ritorik so'roq gap va shuningdek boshqa shunga o'xshash gaplarni o'zlashtirma gapga deyarli aylantirib bo'lmaydi. Masalan, Eh attang, attang qanday beg'amlik!- dedi u jahli chiqib. (Sh. Rashidov.) – U Oygiz bilan istar – istamas, sovuqqonlik bilanko'rishdi: - Ha-a o'rtoq Umrzoqova, he qadrdon, qanday shamol uchirdi? (Sh. Rashidov.)

Ayrim ko'chirma gaplarda undov, ayrim kirish so'z va iboralar **axir, xo'sh, ha, yoq, xo'p, mayli** kabi so'zlar tushib qoladi. Odatda bunday so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan bo'ladi: - **Xo'sh**, qanday yangiliklar bor? – dedi O'ktam. (Oybek.) – O'ktam qanday yangiliklar borligini so'radi. – **Xo'p**, ertadan dars boshlaymiz, - dedi Yo'ldoshev. (Oybek.) Yo'ldoshev ertadan dars boshlashligini aytdi.

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda ko'chirma gapdagi zamon deyarli o'zgarmaydi: 1. – Men paxta teryapman, - dedi u. U paxta terayotganligini aytdi. 2. – Men paxta terdim,- dedi u. U paxta terganligini aytdi. 3. – Men paxta teraman, - dedi u. U paxta terajakligini aytdi.

## **II BOB. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning grammatik-stilistik xususiyatlari**

### **2.1. O'BKGlarning xalq og'zaki ijodi matnlarida qo'llanishi.**

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning ayrim elementlari folklor asarlarida ham uchraydi. Ma'lumki, "xalq eposi"ning har biri og'zaki aytilganda, asrlar osha allaqancha o'zgarish va katta-katta izlanishlar bilan yetib kelganini va buning natijasida asarning bir talay variantlari yuzaga kelganini hisobga olsak, ularning til xususiyatlarida ham xilma-xil o'zgarishlarga uchraganini qayd etishga tog'ri keladi. Umuman, folklor asarlari, jumladan, dostonlar poetikasining o'rganilmagan qirralari ko'p. Shulardan biri epik tasvirda kechinmaning ishtiroki masalasidir. Epik doston qahramonlarining ichki dunyosi: ruhiy kechinmalari, orzu- umidlari va voqelikka emotsional munosabatni keltirib chiqaruvchi holatlar maxsus o'rganilganda, folklor asarlari matnlarida O'BKG tiplarining qo'llanish xususiyatlarini ham aniqlash mumkin bo'lardi. Shu vaqtga qadar bu masalaga e'tibor berilmaganligi sababi, bizningcha, ruhiy tasvir faqat yozma adabiyotga xos degan biryoqlama qarash oqibatidir. Holbuki, inson xarakteri va faoliyati adabiyotning bir turida o'zaro dialektik butunlikda ko'rsatilib, ikkinchi turida faqat inson faoliyati tasviri bilan cheklanishi aslo mumkin emas. Zotan, odatda g'aroyib voqealar zanjiridan iborat deb tasavvur qilinadigan ertaklarda ham qahramonlarning o'y- fikrlariga muayyan darajada o'rin berilgan bo'ladi. Masalan, "Boy bilan mehmon" ertagiga diqqat qilaylik: ertakda xasis boyning ichki kechinmalari, mehmon bilan munosabati "ichida", "xayolida" so'zlaridan keyin keltirilgan ichki nutq formalarida o'z aksini topgan: Boy ichida : "Ikkitasini olib chiqsam bo'lar ekan",- deb: - Mehmon, ketasizmi, yotasizmi? – deb so'ragan ekan ("Luqmoni hakim" 135-bet).

Xalq ertaklarida O'BKGning qisqa formasi personajlarning ichki nutqini ifodalash uchun qo'llanadi. *Ikki tog' yaqinlashganda to'qayzor uchrabdi. "Quyosh aytgan arslon shu yerda bo'lsa kerak", - deb o'ylabdi yigit va qilichini baland ko'tarib, to'qayzorga qarab yo'l olibdi.* (Zumrad va Qimmat, T:1990, 307- bet).

*Gadoy birpas o'ylanib ketib, "Bu savdogar menga bunday dedi-ya, meni kalaka qilar ekanmi yoki to'g'ri aytar ekanmi",- deb ko'nglidan o'tkazibdi. (O'zbek xalq ertaklari, T: 1990, 32-bet). Xotinlar "Bu bedananing qanotlari yulingan bo'lsa kerak, zo'rg'a uchyapti", deb o'ylab turgan ekanlar, bedana birdan "pirr" etib uchib, ko'zda g'oyib bo'libdi (O'zbek xalq ertaklari, -T: 1990, 15- bet).*

Yuqorida keltirilgan misollarda O'BKGdan keyin **"deb o'yladi"**, **"deb ko'nglidan o'tkazibdi"**, **"deb o'ylab turgan ekan"** kabi fe'l formalarining keltirilishi O'BKGning personaj ichki nutqiga aloqador ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ba'zan xalq ertaklarida O'BKGdan oldin **"o'ylab turib"**, **"o'zidan- o'zi o'ylanib"** singari fe'l formalari keltirilib, O'BKG xuddi sof ko'chirma gap kabi qo'shtirnoq ichiga olinadi, uning sostavidagi fe'llar esa 1- shaxs formasiga ega bo'ladi: Akasi ukasining yo'lini poylabdi, bir hamyonga o'n tillani joylabdi-yu, o'ylab turib: *"Endi bu pulni ol desam, baribir olmaydi. Shuning uchun ukamning o'zi o'tadigan ko'prikning bir chekkasida tashlay- chi, olib qarzidan uzilib qolarmikan, men ham boshimni ko'tarib yurarmi ekanman"*, - deb hamyon bilan haligi pulning ukasining kelayotganini ko'rib, ko'priikka tashlabdi (Luqmoni hakim, 190-bet). Abdurahmon uyiga borib qolibdi, uxlab qotib qolibdi. Erta bilan turib, asta-sekin yurib, daryo labidagi yerning chopig'ini chopib, qorni ochib, daryo labiga borib, *o'zidan- o'zi o'ylanib: "Uyga boray desam, uzoq bo'lsa, chopishimni qilay desam, kun issiq bo'lsa, yaxshisi biron narsani ermak qilayin"*, - deb chayla to'qibdi (Luqmoni hakim, 164- bet).Xotin avval, *"u meni tengimmi, zotim ulug' bo'lsa, men kelib- kelib shu isqirt, omboridon, sandig'i don ko'rmagan bir gadoga tegamanmi"*, deb o'ylabdi. Keyin *"Non topib kelishga ham odam kerak, o'g'li ham ishga yarab qolganga o'xshaydi, ota-bolani ishlatib nonini yemaymanmi"*, - deb ko'nglidan o'tkazibdi va rozi bo'libdi (Zumrad va Qimmat, -T.; 1990, 151-bet).

Xalq eposida, jumladan "Alpomish" dostonida ruhiy kechinmalar tasviri va uning sostavida qo'llangan O'BKG formalari turlicha kompozitsion- uslubiy

vazifalarni bajaradi. Shulardan birini shartli ravishda syujet rivojida muhim burilishlarni keltirib chiqaruvchi ruhiy kechinmalar tasviri deb nomlash mumkin. Bunga “Alpomish” dostonining boshlanishidagi zakot voqeasi tasviri misol bo’la oladi.

Dostonda hikoya qilinishicha, kunlardan bir kun Hakimbek kitob o’qib o’tirib, baxildan, sahiydan gap chiqib qoladi. Boybo’ribiy shunda o’g’li Alpomish (Hakimbek)dan: - Kishi nimadan baxil bo’ladi, nimadan saxiy bo’ladi? – deb so’raydi. O’g’lining javoblari orasida “kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy... Agar zakot bermasa, bul ham baxil” degan fikrlar bo’ladi. Bu esa Boybo’ribiy ichki kechinmalarining rivoji uchun turtki beradi. Shundan keyin Boybo’ribiyning ichki kechinmalari tasviri dostonda quyidagicha berilgan:

Bu so’zni Boybo’ribiy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: *“Men o’n olti urug’ Qo’ng’irot elining ham boyi bo’lsam, ham shoyi bo’lsam, men kimga zakot beraman. Mening davlatimda yolg’iz inim Boysari baxillikkka chiqib ketmasin”,- deb o’z ko’nglida: “Boysaribiy ukam menga zakot bersa kerak ekan”,-deb o’yladi (Alpomish, - T.; 1995, 16-bet).*

“Alpomish” dostoni qahramonlari xarakterida namoyon bo’ladigan hamda O’BKG yordamida ifodalanadigan kechinmalarining yana bir tipini situativ kechinmalar deb nomlash mumkin. Bunday kechinmalar doston voqealari davomida muhim burilish yasay olmaydi, faqat qahraamonlarning muayyan epizoddagi oniy kechinmalarini aks ettirish bilan cheklanadi. Masalan, Alpomish Qalmoq eliga Barchinni olib kelish uchun ketayotganida yo’lda qorong’i tushib, tunash uchun joy qidiradi. Shunda ko’zi mozorga tushib, ko’nglida quyidagi o’y kechadi. *“Kech qolgan odam mozoratda yotadi, degich edi. Shul mozoratda yotsammikan, yo shu yerdan ketsammikan. Behuda odami yo’q mozoratda yotishligim qanday bo’lar ekan”,* yoki qirq bir nafar safdoshi bilan yashirincha Qalmoqqa otlangan Alpomishning otasi haqidagi ichki o’ylari O’BKG yordamida quyidagicha ifodalanadi: *“Bu miyasini yegan chol, ilgari qancha minnatdor bo’lganimizda javob*

*bergani yo'q, endi bizning oqshomlab jo'naganimizni qayoqdan biladi, tag'in baloday bo'lib, yo'lga chiqib turadi, gapiga javob bersang jilovingni oladi, tirmashib balo bo'ladi", - deb o'ylab Boybo'ring so'ziga quloq solmadi (Alpomish, 186- bet).*

Bundan tashqari “Alpomish” dostonidan keltirilgan quyidagi parchada avtor nutqi sostvida “o'ylab ko'rdi” fe'lining mavjudligi shundan keyingi qo'shtirnoq ichida berilgan nutq Qaldirg'ochoyimning xayoliy, ichki nutqi ekanligidan dalolat beradi:

Yodgorga bildirib, tuyaning qoshiga Yodgorni qo'yib, o'ylab ko'rdi: *“Bu olti oychilik yo'lda bo'lsa, qalmoqning elide bo'lsa, zo'r yovning qo'lida bo'lsa, uncha-muncha izlab borolmasa... agar Qorajon izlab bormasa, uncha- muncha odam izlab borolmaydi”, - deb Olatoqqa, Qorajonnikiga qarab yurdi. (Alpomish, 211- bet).*

Xalq dostonlarida O'BKG formalari ko'pincha personajlarning ichki monologida (poetik nutqidan) iborat bo'lib keladi. Masalan:

*Ko'rib bu qalmoqlar hayron qoladi,*

*“Ilgaridan mashq qip yurgan balodir,*

*Ming qadamda tanga pulni uradi,*

*Bul o'zbek hadisga o'zi balodir,*

*Hali yolg'iz ko'p ishlarni qiladi,*

*Har ish ham buning keladi*

*Kelgan shartning barin unda qiladi*

*Buning bilan kim barobar bo'ladi? (Alpomish, 138- bet).*

Xalq dostonlarida O'BKGning poetik maktub tipi ham uchraydi. Masalan, Bu xatni o'qib ko'rib, ancha sherdil bo'lib, “yolg'iz” o'zim ko'pning ishini qilib kelgan ekanman deb Murodxon ko'tarilib, “shuncha ish o'tguncha hech bir odan sirimni



bilmabdi”, “e, falonchi- da demabdi” degan so’zlarni aytib, devga bildirib, Kironshohning xatiga javob qaytaribdi:

*Murodxonman Oqtosh elning sultoni,*

*Oqtosh yurti – shoh qizining makoni,*

*Garang bo’sh yurmasin guliston xoni,*

*Afsarni do’st bilsa, shuldir makoni...*

Shunisi ma’lumki, boshqa xalqlar eposlarini o’zbek tiliga tarjima qilishda ham tarjimonlar O’BKG formalari originaldagidek saqlab qolishga, shu orqali epos qahramonlarining ichki kechinmalarini o’zbek tilida ham ifodalashga alohida e’tibor berib kelmoqdalar. Buni biz birgina hind xalq eposi “Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi” (Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1988, tarjimon: Sotiboldi Yo’ldoshev) misolida ko’rishimiz mumkin.

Eposda tasvirlanishicha, besh og’ayni Pandavlarning musobaqada g’alabasini ko’rgan Do’ro’dxo’naning nafasi ichiga tushib ketadi, ular bilan o’zi kuch sinashmaganidan juda afsuslanadi. Ana shu holatdagi Doro’dxo’nanaig ichki kechinmalari O’BKG yordamida quyidagicha ifodalangan:

“Endi olamda bizga tenglashadigan odamni o’zi yo’q ekan, deb bu amakivachchalarimizning burunlari ko’tarilib ketishlari aniq, - deb o’yladi u tishlarini g’ichirlatib, qovog’ini solib,- Karna qayoqda qoldi? Nega u kelmadi? Aslida o’zim ahmoqman, uning orqasidan chopar yubormabman!” (19-bet).

Hind xalq eposi “Mahabharata”da O’BKG formalari ba’zan qo’shtirnoqsiz qo’llangan. Bu jihatdan O’BKG formalari yozma adabiyotdagi O’BKGdan hech farq qilmaydi. Masalan, eposning “Pandavlarning surgunga ketishi haqida hikoyat” bobi so’nggida keltirilgan O’BKG xuddi shunday formadadir:

Ko'r podsho birinchi marotaba shunday jasorat ko'rsatdi, razil o'g'lining yovuzlik qilishiga imkon bermadi. *O'sha oxiri voy bilan tugagan soqqa o'yinini o'z vaqtida to'xtatishga amr qilganda shunchalar bo'lmasmidi?! Kelajakda yuz beradigan qirg'indan o'z avlodini jilla bo'lmasa ozroq vaqt saqlab qolarmidi?* Biroq bu omadsiz Bharata avlodi aql ovozigacha quloq solmadi, donishmandlar maslahatiga e'tibor bermadi. (64- bet).

O'zbek xalq eposlarida bo'lgani singari hind xalq eposida ham ko'proq O'BKGning qisqa formasi qo'shtirnoq ichiga olib yozilgan: *"Axir bu nayza bilan men Arjo'nani o'ldirmoqchi edim-ku, - deb o'yladi u sarosimada. Bu qurolni men bir marta ishlatishim mumkin. Nima qilsam ekan?"* (140-bet) va boshqalar.

Lekin shuni ham yodda tutish lozimki, xalq ijodiy namunalari chinakam, tom ma'noda O'BKG formalrini topish qiyin, chunki "xalq ijodi namunalari" va Sharqda keng tarqalgan "Ming bir kecha" kabi asarlarda xarakterning o'sishi, shakllanishi – "qalb dialektikasi" ko'rsatilmas edi, psixologik analiz yo'q edi, voqea asosiy o'rinda turar, voqea mantig'i bilan xarakter mantig'i o'zaro bog'liqlikda harakat qilmas edi...dramatik asrlarda esa O'BKG formalari avtor remarkasida qo'llangan "o'zicha", "o'yladi", "xayolga beridi" kabi gaplardan keyin keladi.

Umuman bizni yuqoridagi fikr- mulohazalarimizdan ertak va dostonlardagi shu bilan birga xalq o'g'zaki ijodi janrlaridagi qahramon ichki kechinmalari tasviri va bunga O'BKG formalari qo'llanish prinsiplari aynan yozma adabiyotdagidek, degan xulosa kelib chiqmaslik kerak. To'g'ri, badiiy obraz yozma adabiyotda bo'lganidek, kollektiv ijodida ham tipiklashtirish, umumlashtirish va konkretlashtirish orqali yaratiladi. Ammo yaratuvchi xalq o'z qahramonlarini yozuvchilar shoirlar kabi individuallashtirmagan. Ertaklarda, eposlarda hamma vaqt voqealar mantiqning voqealar mantig'idan xiyla ustun bo'lib kelganligini ana shu bilan izohlash mumkin. Shunday qilib folklor asarlarida tipiklashtirish, umumlashtirish va konkretlashtirish o'ziga xos yo'sinda amalga oshgani uchun qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy olam tasviri ham yozma adabiyotdagidan tamomila farq qiladi. Folklor

asarlarda psixologik tasvir uchun xizmat qiluvchi O'BKG formalari ham yozma adabiyotdagidan birmuncha kam qo'llanadi. Shunday bo'lsa-da, folklor namunalarida, ayniqsa, eposlarda O'BKG formalarining qo'llanish prinsiplarini keng planda tadqiq etish ijod psixologiyasi, folklor va yozma adabiyotning o'zaro munosabati singari ko'pgina murakkab muammolarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

### **2.1. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning poetik matnda qo'llanishi**

She'riyat tili va uning o'ziga xos xususiyatlari, she'riyat va proza tilida mavjud bo'lgan umumiy va xususiy tomonlar davrlar o'tishi bilan takomillashib boradi. Bu esa turli davrlar qo'ygan talablar, xalqning estetik didi, qarashlari takomili, milliy adabiyotdagi uslub va an'analar rivoji bilan aloqadordir. Badiiy so'z ko'rsatadi va anglatadi, o'ylatadi va his qo'zg'atadi, o'zgartiradi, tarbiyalaydi va kurashadi, ammo uning bunday fazilatlarini she'riy asarlarda alohida kuch- quvvat kasb etadi. Olimlar she'riy nutq tarkibini xarakter, kechinma poetik leksika, intonatsiya, ritm va musiqiylik komponentlaridan iborat, deb hisoblaydilar. She'riy asarlarda, ayniqsa, ballada, poema, doston singari liro- epik janrdagi asarlarda shoirlar boshqa vositalar bilan birga O'BKG formalaridan ham foydalanadilar. Bu esa shoirlarga lirik qahramon va personajlarning ichki kechinmalarini, o'z qalbini o'zlari ochish uchun imkon yaratadi.

Masalan, "Hamid Olimjon poeziyasining badiiy sintezi" (Naim Karimov) "Zaynab va Omon" poemasida lirik tasvir bilan epik tasvir vobasta bo'lganligi, shoir ikki sevrishgan qalb kechinmalarini ichki monologlar yordamida ocha bilganligi tadqiqotchilar tomonidan qayta- qayta ta'kidlangan. Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, bu poemada qahramonlarning qalb dunyosini ochishda shoirga O'BKG formalari katta yordam bergan. Poemadan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Sekin kelib yotdi-yu faqat

Kiprigini yuma olmadi.

O'ylay- o'ylay toq bo'ldi toqat,

Endi sira yurak qolmadi.

*Yoki birdan Omon ko'ziga*

*Uyalmasdan qaray qolsami?..*

*Hamma gapni uning yuziga*

*Shartta- shartta ayta olsami?..*

(Hamid Olimjon, II tom, 137- bet).

Bu o'rinda ta'kidlab ko'rsatilgan misralar qalbiga muhabbat olovi tushgan qiz – Zaynabning his- tuyg'ulari, qalb tebranishlari tasviriga xizmat qiluvchi O'BKG formalaridir. Bu misralarni personajning sof ichki monologi deya olmaymiz, chunki u III shaxs formasida berilgan, ulardan oldin “o'ylay- o'ylay toq bo'ldi toqat” misrasi esa O'BKG olib kiruvchi kiritma bo'lak vazifasini bajarmoqda.

Poemada Zaynab, Omon, Sobir, Anor xola, Xuri singari personajlar nutqi, lirik qahramon nutqi tez- tez o'rin almashadi, personajlarning ichki kechinmalri tasvirida esa ichki monologlar bilan bir qatorda O'BKG formalari muhim stilistik vosita vazifasini bajaradi. Jumladan quyidagi misrada dastlab Zaynab qalbini ochishga xizmat qiluvchi O'BKGformalari 6 misrada berilgan bo'lsa, so'nggi 2 misra avtor- hikoyachi nutqiga aloqadordir. Ritorik so'roqlardan tuzilgan O'BKG formalari qizning qalb nidosini o'quvchiga ta'sirli qilib yetkazishga bo'ysundirilgan:

*Omon kimdir bormi vatani,*

*Kim ham qizga tanitar uni.*

*Shod bo'lda- da xotirotidan,*

*Xabarsizdir yorning zotidan*

*U bo'ldimi sevgisiga teng,*

*Oshyoni qayda bu qushning?*

Zaynab fikri chuvaltirgan shul,

Fikri- yodi shu bilan mashg'ul.

(2- tom, 139-bet).

She'riy asarlarda, jumladan liro- epik asarlarda O'BKG formalarining amal qilinishini o'rganish bizningcha, ikki yo'nalishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir: bir tomondan, O'BKGlarning she'riyatda qo'llashning leksik- grammatik aspektlarini tadqiq etish va ikkinchi tomondan, shu nutqqa nisbatan avtor, lirik qahramon, hikoyachi- qahramon munosabatini aniqlashdan iboratdir. Birinchi yo'nalishda olib borilgan kuzatishlar natijasida O'BKGlarning leksik- grammatik xarakteristikasi aniqlanadi, ikkinchi yo'nalishda esa uning stilistik mohiyati ochib beriladi. Masalan, birinchi yo'nalishda Hamid Olimjon, Uyg'un, G'afur G'ulom, Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor singari shoirlarning asarlarida O'BKG formalarining leksik- grammatik vositalar bilan ifodalanganligi va ikkinchi yo'nalishda O'BKGlarning qanday stilistik maqsadlar uchun xizmat qilganligi aniqlanadi.

Lirik- epik asarlarda O'BKGlarning personajlar nutqi kabi predmet, voqea-hodisalarni tasvirlash, oydinlashtirishga ham xizmat qiladi:

*Senga xotin bo'lajak qiz zarbdor qiz emish,*

*Tong yellari tarar emish qo'ng'ir sochini.*

*Oq oltinlar diyorining quvnoq, erkin ish*

*Oqshomlar silar emish qora qoshini.*

*Undan o'pich so'rar emish lola rang shafaq,*

*Quyosh ko'zin shamg'alatib har toza sahar.*

(Gafur G'ulom "To'y").

Yuqoridagi misralar shoir Gafur G'ulomning "To'y" poemasidan olingan bo'lib, unda bir tomondan asar personajlaridan birining nutqiy maneyerasi, voqealarga munosabati o'z aksini topgan bo'lsa, ikkinchidan asar qahramoni Shodmonning o'zgalardan eshitgan fikrlari -mish fe'li yordamida uning nutqi tekstiga singdirib yuborilgan. Bu xil muammolarni o'rganish poetik sintaksisning muhim obyekti sanaladi. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida hozircha poetik sintaksis masalalarini tadqiq etishga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Vaholanki "poetik sintaksis asar tilining obrazlilikini, emotsionalligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shaxslarning harakati, o'zaro to'qnashuvi, ichki dunyosi va hokozolarning o'zgarishini ko'rsatishda poetik sintaksisning ahamiyati kattadir"<sup>16</sup>.

Shoir Abdulla Oripovning ayrim she'rlarida hamda "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Ranjkom" dostonlarida qahramonlarining ichki kechinmalari shoir, lirik qahramon mushohadalari bilan bir qatorda O'BKG formalari yordamida ham ochilgan. Masalan, shoirning mashhur "Genetika" she'rining bir o'rnida shunday tasvir bor:

*Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,  
Qay his yuraklarda topolgan kamol?  
Yiroq avlodlargabizlardan meros  
Qolar kurashlarda toblangan hayol.*

Keltirilgan parchaning oldingi ikki misrasida ritorik so'roq gaplardan so'zlardan O'BKG yordamida kitobxonga murojaat qilinadi, keying ikki misrada esa avtor- hikoyachi o'z nutqida shu dolzarb, hayotiy savollarga javob beradi.

Ko'rinadi, poetik asarlarda, ayniqsa, liro- epik asarlarda O'BKG formalari boshqa sintaktik- stilistik vositalar bilan bir qatorda personajlarning ichki kechinmalarini ochish uchun foydalaniladi. Bunda shoirning individual uslubi, lirik

---

<sup>16</sup> Турабекова С. Тил ва услуб. Т.; УзССР Давлат бадий адабиет нашриети, 1963.

tasvirini epik tasvir bilan uyg'unlashtira olish mahorati hal qiluvchi ahamiyatga egadir<sup>17</sup>.

Xusniddin Sharipovning "Yashamoq kerak" poemasining janr xususiyati ham qahramon qalbini xuddi yuqoridagi poema singari liro- psixologik tarzda ichki monologlar va O'BKG formalari yordamida ochilishi bilan belgilanadi. Poemada voqelik asosan muallif (avtor- hikoyachi) va mo'ysafid cholning mushohadalari hamda bevosita personajlar nutqi orqali ochiladi. Asarga cholning o'g'illari – jurnalist Kamol, atomchi olim Razzoq, traktorchi Murodning o'ylari, ichki kechinmalari, odamlar bilan muloqoti, dialoglari ham kiritilgan. Shuning uchun poemada har bir personaj xarakterini ochishda psixologik tasvir usullari ham xilma-xil shaklda namoyon bo'ladi, bu o'rinda shoirga O'BKG formalari yordam beradi. Masalan, jurnalist Kamolning xorijlik qiz Meri bilan suhbatı chog'ida o'z kasbining mohiyati haqidagi o'ylari berilishi, ona yurt manzaralarini eslashi O'BKGga yaxshi misol bo'la oladi:

*Odamzod baxti deb yonish – kasbimiz,*

*Ammo bir odamni baxtli qilish- chi?*

*Nima der ekan qiz?*

*Nima derkin qiz?*

*Yolg'iz shu yurtdami baxtdan ilinji?...*

### **2.3. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning prozaik tekstda qo'llanishi**

Proza tili g'oyaviy mazmuni bilan birga taraqqiy etib, takomillashib bormoqda. Yozuvchilarimiz hayotiy voqealarning va insoniy xarakterlarning umumiy mohiyatini ochish bilan cheklanib qolmay, har bir voqea, har bir xarakterning o'ziga

---

<sup>17</sup> Б.Йулдашев, О. Исроилов. Узиники булмаган кучима гапларнинг грамматик- стилистик хусусиятлари ва бадий матндаги урни, Самарканд, 1992.

xos konkret shaklini til vositasi, uning leksik- frazeologik, grammatik imkoniyatlari yordamida tasvirlab, obrazli tafakkur asosida ifoda etmoqdalar. Bu soha yozuvchilarga o'zga gap formalaridan, jumladan, O'BKGning turli ko'rinishlaridan foydalanish ham qo'l kelmoqda.

O'BKG badiiy nutqda, ayniqsa, uning proza janrida turli stilistik maqsadlarga keng qo'llanishi yuqorida ta'kidlangan edi. Mashhur uslubshunos olim M. M. Baxtin "Dostoyevskiy poetikasining problemalari" nomli asarida prozaik nutqning uch tili borligini va bu "ishlarning o'z ichida yana son- sanoqsiz variatsiyalari, ko'rinishlari" mavjudligini ko'rsatgan edi.

Keyingi yillar prozasida lirizm va psixologizmning kuchayganligi, qahramonlarning ruhiy olami to'laroq ochilayotganligi, sotsial- psixologik roman va povestlarning yaratilayotganligi, shubxasiz bayon strukturasining muhim elementlaridan biri – O'BKGning prozaik asarlar tarkibiga ko'proq kirib kelayotganligi natijasidir.

O'zbek yozuvchilari O'BKGlardan qahramonlarning ichki dunyosini, his-tuyg'ulari, xulq- atvori, kayfiyati, umuman, ruhiy olami bilan kitobxonni yaqindan tanishtirish maqsadida unumli foydalanib, personajlar tilidan o'zlari so'zlaydilar, tasvirlanayotgan voqeaga o'zlarining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirdilar. Shuningdek, O'BKG formalari prozaik asarlarda personaj xarakterini individuallashtirish va tipiklashtirish vositasi sifaida ham qo'llaniladi.

Prozaik asarlarda qo'llangan O'BKGlar grammatik qurilishiga ko'ra avtor nutqiga ko'p o'rinlarda mos keladi. Ammo bayon qilingan fikrning umumiy mazmuni, uning modalligi, leksik sostavi, qo'llanishi, personajlarning subyektiv tafakkuri va individual nutqi xarakterida bo'ladi. Masalan, yozuvchi Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidan olingan quyidagi ichki parchaga diqqat qilaylik:

1. U har qancha qilsa ham Dildor tugunchani olmadi. Risolat ham unga qarshilik ko'rsatmadi. *Bitta ko'ylak palon pul. Muxtoj emasdirki olmadi. Eski*



*bozorga oborib sotsa bo'ladi. Hozir nima ko'p, eski matoga xaridor ko'p.* (S. Ahmad. Ufq, 423-bet).

2. A'zamjon bu gaplar shunchalik gazak olib ketishini o'ylamagan edi. *Yo'l o'rtasida o'g'li ko'zlarini javdiratib qarab qoldi. Tug'ilganida ham, yo'lga kirib tili chiqqanida ham ko'rmagan ota o'z bolasini bir necha minut bag'riga bosdi, xolos. Aft- basharasiga ham durustgina qarab ulgurgani yo'q. ko'zlari qanaqa, qoshlari qanaqa, o'ziga o'xshaydimi?* (509- bet).

Keltirilgan I parchada Risolatning mol- dunyoga o'chligi uning xayoliy nutqi orqali ochilgan. Bu xayoliy nutq qisqa- qisqa formaga ega ekanligi bilan o'zidan oldin kelgan avtor nutqidan farq qilib turadi.

Agar I parchada O'BKGdan foydalanayotganiga ishora qilinmagan bo'lsa, II parchada esa bunga murojaat qilinadi. Avtor nutqi sostavida keltirilgan "o'ylamagan edi" tafakkur fe'li bundan keyingi gaplar personajning o'y- fikrlari ekanini yaqqol ko'rsatib turadi. Oxirgi gapda so'roq olmoshi, so'roq yuklamasining ham qo'llanishi ham bu gapning O'BKG ekanini tasdiqlaydi. Shu parchadan keyin keltirilgan "Mana shunday xayollar kechasi mehmonlar tarqalguncha ham ko'nglidan ketmadi" (509-bet) gapi O'BKG formasining shu o'rinda rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Personajning "o'z yo'giga o'zi qovurilishini" talantli o'zbek prozaiklari O'BKGda ekspressiv intonatsiyalarni kuchaytirish bilan gavdalantiradilar. Said Ahmad ham o'zining "Ufq" trilogiyasi va "Jimjitlik" romanida bunday ekspressiv intonatsiyani hosil qilish uchun gap bo'laklari maksimal to'liq bo'lmagan to'liqsiz gaplardan foydalanadi, chunki bunday gaplarning ekspressiv intonatsiyasi nihoyatda ta'sirli va kuchlidir. Masalan, U o'ylardi. Sog'intirgan akasi kelib uyi obod bo'ldi, yor- birodarlari oldida ko'pni ko'rgan akasi bilan faxrlandi. Bu yaqin orada undan baxtli odam yo'q...

*Akasi nima qilmoqchi? Dildor bilan yaqinligi unga yoqmayaptimi? Nimaga? Balki Dildorning biror qilig'I akasiga o'tirishmayotgandir?..*

Nizomning kallasiga kutilmaganda bir o'y keldi. *Yo akasi Dildorni sevib qoldimikan? Yo'g' - e! Ehtimol uning sevishini bilmas?*

U miyasiga kelgan bu fikrdan qo'rqi ketdi. *Bordi- yu, u Dildorni sevgan bo'lsa, eshitganlar nima deydi? Akasi nima deydi?* Nizomjon o'ylanaverib qiynalib ketdi. O'yining oxiri shu bo'ldi. *Uch- to'rt kun akasining ko'ziga ko'rinmay qo'ya qoladi.* (Ufq. 266- bet). Azizbek o'rnidan turib ularga yo'l berdi. U ikkoviga ham hayron qarab turadi. Kim biladi, uning xayolidan nimalar o'tdi ekan. *Balki u bular dadamning daragini topib keldilarmi, deb o'ylayotganmikin? Bechora dadasidan judo bo'lgani yetmagandek, endi onasidan ham ayrildi. Qarib, ana ketaman, mana ketaman deb turgan buvisi ham olamdan o'tib ketsa, kim bilan qoladi? Qayoqqa boradi? Nima qiladi?* (Said Ahmad. Jimjitlik, 144-145- betlar).

Xuddi shuningdek Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida Dildorning o'z o'zi bilan gaplashishi ham O'BKGning dialogik formasida berilgan. Dildor o'zini o'zi so'roqqa tutadi, har bir so'rog'iga qalbidan javob izlaydi, iztirob chekadi. Eng muhimi har bir savol munosabati bilan Dildor o'zining musaffo, biroz erka qalbini ochadi, kitobxon bilan ochiq gaplashadi. Kitobxon esa, garchi Dildor hayot bobida ikki marta xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, uni kechirishga, afv etishga majbur, chunki uning qalbi sofliigi, ko'ngliga qarab ish tutganligi Dildorning dialogik formadagi hayoliy nutqi – O'BKG yaqqol anglashiladi.

Dildor ayvon ustuniga suyanib podadan qaytayotgan mollarning shovqun-suroniga quloq solib o'y o'ylardi. *Nima qilib qo'ydi? Yana o'sha saraton qizdirgan tutzordagi ishni takrorlab qo'ydimmi Nahotki men shunchalik irodasiz, yigit og'ushida har narsani unutadigan, bor ixtiyorini topshirib qo'yadigan odamman? Bu uchrashuvning oqibati nima bo'larkin? Qoqilmasmikanman? Keyin yig'lab yurmasmikanman? Yana uylanmagan yigit bilan- a... bu gal ham pand yesam... xudo asrasin. Ishqilib o'shandoq bo'lmasin! U holda o'zimni o'zim bir balo qilib qo'yaman. Ko'r ham hassasini bir marta yo'qotadi. Men ikki marta yo'qotdim.*

*Uchinchisi nima bo'larkin? Yana tavakkal qildim- a. ishqilib aldanmagan bo'lay?*  
(S. Ahmad. Ufq, 612- bet).

Shuningdek, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" Muzaffar tilidan quyidagi dialogik nutqlar berilgan:

*"Shoshma emish". Xo'sh, shoshmaganimda nima bo'lardi? Oldiga o'tqazib qo'yib nasihat qiladimi? Ishni buzgan o'ziki! Bunda chiqdi sovchi bo'lib borganini Munavvarning onasiga aytmagan. Ko'cha- ko'ydan gap terib qaytib kelgan. Ishni bitirish o'rniga dadamniyam yo'ldan urgan. Qiziq, dadam nega sapchip ketdi? Kelib-kelib shu qizni ... dedimi? Nimaga endi Munavvarni yaxshi ko'rmasligim kerak! Munavvarni- ya? Nega? Chuchvarani xom sanabsizlar!*

Yoki bu parchani ko'raylik (Muzaffar tilidan):

*Yuragim seskanib ketdi. Negadir bu ovoz Bashor xolanikiga o'xshab ketdi. Boya dadam aytgan mudhish xabar zilzila vahimasi bilan bir zum xayolimdan ko'tarilgan ekan. Yana hammasi qaytadan yodimga tushdi-yu ko'cha eshikka qarab yugurdim. To'g'ri tekstilda baqirgan odamning ovozi bu yerga kelmaydi. Ammo yuragim sezib turibdi. Bir gap bo'lgan. Munavvarga bir gap bo'lgan.*

*Menga desa ming marta qimirlamaydimi?! Boshimga tushgan ko'rgulik oldida zilzila nima bo'пти?! Yo'q, men emas, Munavvarning boshiga tushdi bu kulfat! Endi nima bo'ldi? Yuragimni sug'urib tashlasam qutulamanmi shu azobdan! Terimni shilib tashlasam qutulamanmi ? Munavvar! Nima qilib qo'ydim!*

*Toqatim yo'q! ko'rarga ko'zim yoq! Dadamniyam, ayamniyam! Balki bo'yin egdi deb o'ylarsizlar! Chuchvarani xom sanabsizlar! Pasportimni olaman-u tong otmasdan chiqib ketaman! Bo'ldi, yetar! Yosh bola emasman! Odamman. Erkakman!*

*Uch kun oldin Munavvar nima dedi? Bekatda, muzey devoir tagida! Men ham... mening ham bolam bo'ladi. Yaqinda! Kerakmas to'ylaring-u karnay surnaylaring!*

Ushbu misollarda personaj (Muzaffar) o'z- o'zi bilan gaplashadi, dardlashadi va o'zini- o'zi so'roqqa tutadi., qalbi nihoyatda azoblanadi. Bularning hammasi O'BKG orqali beriladi.

Quyidagi misolda esa *muallif* Quyosh tilidan gapirib, o'z fikr- mulohazalarini, qarashlarini asarga kiritadi:

*Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti jilmayib boqadi-yu, unsiz xitob qiladi: "Bir kiprik qoqgulik qisqa umringizda tinch-totuv yashasalaring bo'lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh iymon! Axir hammangiz insonsiz- ku. Hammangiz mening bolalarim- ku, men sizlarning otangizman-ku. Bir-birlaring bilan qirpichoq bo'laverishlaringni ko'rib charchab ketdim- ku! Yetar axir, yetar bolajonlarim! O'z onagizni – Yer kurrasini adoyi tamom qilmoqchimisiz?! Onangiz shu umidda tuqqanmidi sizni?! Shu niyatda ko'tarib yuribdimi ko'ksida!"* ("Ikki eshik orasi", 546- bet).

Bundan tashqari *muallif* personaj Muzaffar tilidan ham gapirib, o'zining hayotga qarashini yorqin ko'rsatib o'tgan:

*...Ajab, inson xotirasi eshigi yopib qo'yilgan omborga o'xsharkan. Ombordan har kuni o'tasiz. O'tasiz- u, o'z yumushingiz bilan ovora bo'lib qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo'ralab qaraysiz. Shunda qiziq bir voqea ro'y beradi. Ombor ichida oltindan aziz narsa ham, ko'ziz tushishi bilan ta'bingizni xira qiladigan qaququqlar ham qalashib yotgan bo'ladi. Alam qiladigan joyi shundaki, siz ulardan xohlaganingizcha ajratib ololmaysiz. Bunisi kerakli, bunisining keragi yo'q, deb birini olib, ikkinchisini uloqtirib tashlash qo'lingizdan kelmaydi. Hammasi baravariga jon ato etib, atrofingizni qurshab oladi.* ("Ikki eshik orasi", 13- bet).

Adib O'. Hoshimov yuqoridagi asarda ("Ikki eshik orasi") Umar zakunchi tilidan ham gapirib, uning xarakterini, "qalb dialektikasi"ni ochishda mohirlik ko'rsatgan:

*Qayoqdan keldi Shomurod cho'loqning itvachchasi? Hammasiga manavi jodugar aybdor! Shu chaqirgan! Toshkentga bormay qo'yuvdi- ku. Xat yozgani, telegramma jo'natganmi, ishqilib chqirgan. Bo'lmasa o'zidan- o'zi kirib kelmasdi. Qayoqdan bilay nima xayollar bilan kelgan ekan! Nasiba o'nda o'qiyapti. Bundan chiqdi anavi itvachchasi maktabni bitirgan. Kim bilsin, azmoish olib ko'raychi, kel desa butunlay ko'chib kelaman, deb o'ylaganmi?* ("Ikki eshik orasi", 447- bet).

Yoki yana boshqa bir misol ( Umar zakunchi tilidan):

*Bugun ham ishim yurishmadi o'zi! Ertalabdan sex boshlig'i bilan g'ijillashib qoldim. Yo'g' toza chiqmayotganmish. Chigitning o'zi yomon bo'lsa, toza yo'g'ni kata xolamnikidan olamanmi?! Bu xotinni kim sexga nachalnik qilib qo'ygan o'zi? Kattalarga ko'zini suzganda... nuqul menga tirg'iladi. Qo'l uchida ishlaysiz deydi, mas'uliyatsiz odamsiz deydi. Avval men qilgan xizmatlarning o'ndan birini qil...*

*... O'zim qonimga tashna bolib kelsam, ahvol bu! Qachon qarasa yolg'iz qizni turtkilaydi, azob beradi! Endi o'g'illari kelib, tillari uzun bo'p qopti- da! Yaxshiyam Nasiba o'zimga tortgani, bir so'zli, prinsipial. Baribir qiz bola qiz bola- da! Anovi haromini ketidan quvmoqchi edim, dod solib qoldi. ?* ("Ikki eshik orasi", 447- bet).

Yuqoridagi misollar orqali biz personajni to'la tasavvur qila olyapmiz, uni xayolimizda akslantira olyapmiz. Buning uchun esa albatta, O'BKG kata rol o'ynamoqda.

Ikki eshik orasi romanida muallif Munavvar tilidan ham O'BKG orqali gapiradi.

*"Nima deyapman o'zi? Bularda nima gunoh? Qiziq, odam o'zi baxtli paytida hammani bahtiyor deb o'ylaydi. Boshiga kulfat tushganida esa hamma bahtiyoru bir o'zi bahtiqarodek tuyuladi. Nimaga unaqa deyman? Nima, shunchalik bahtiqaro*

*bo'lib qoldimmi! Paxtadan qaytganimizdan keyin Muzaffarning o'zi aytti- ku, to'yingni tezlashtira qolaylik, dadang to'y ko'rgisi kelyapti dedilar", - dedi- ku! O'shandayam maynavozchilikka olgandim. "chuchvarani xom sanabsiz, men oyimning boshiga yosti bo'laman", degan edim. Mana endi o'zim yalinishim kerak. ("Ikki eshik orasi", 499- bet).*

Ushbu asardan olingan quyidagi parchada Muzaffarga Munavvarning onasi hammani oldida unga tarsaki tushirganidan so'ng kechgan fikr -o'ylari, yurak iztiroblari O'BKGning dialogik formasida ham o'z aksini topgan: *Shovullayotgan nima? Bo'rijarmi? Qayoqqa kelib qoldim o'zi? Alvasti ko'prik- ku! Ana, Bo'rijar suron solib, ko'prik tagiga kirib ketyapti, muncha hayqiradi? Yo'lida to'g'onlar borligidan xabari yo'qda! Avval bittasi to'sadi, keyin ikkinchisi, uhinchisi... Har qadamda yo'lini to'sa- to'sa oxiri yerga singdirib yuborishadi. Nimaga shunaqa? Nimaga o'z yo'lingni o'zing tanlashingga qo'yishmaydi? Nega endi doim birovlarining izmida yurishing kerak!*

*... Aslida o'shanda, Sherzod bilan garov o'ynaganda, ko'prikdan tashlasam bo'larkan. Qutulib ketardim. Munavvarga ham shuncha azob yo'q edi. Hali ham kech emas. Suzishni bilmayman. U yoqda ota- onang ayuhannoz solsa, bu yoqda eng yaqin insoningning onasi kuppa- kunduz kuni, ko'chaning o'rtasida ura... haliyam kech emas... . ("Ikki eshik orasi", 521- bet).*

O'BKGlarni dialogik nutqda qo'llanishi qahramonlar qalbidagi dramatik to'qnashuvlarni ifoda etishda ulkan estetik kuch, muhim sintaktik- stilistik vosita hisoblanadi.

"Diyonat"romanida Otaqo'zining to'gasi, eng ajoyib inson domla Shomurodov vafotidan so'ng uning qabri yonidagi o'y- fikrlari ham O'BKGning dialogik formasida berilgan. Otaqo'zining quloqlari ostida dastlab raykom sekretari Abror Shukurovichning ovozi jaranglaydi, keyin do'stlari Proxor Polikarnov,

O'rozqullarning gaplarini xayolan eshitadi, tog'asi yozgan xat yodiga tushadi. Ana o'shanda Otaqo'zi o'zi bilan o'zi olishadi.

*Tog'asi- ku xatda bo'lsa ham o'z dardi- dunyosini, alam- iztiroblarini, armonlari, mehri, yaxshi tilaklarini unga, jiyaniga aytib ketdi. Armonsiz ketdi. U- chi? Otaqo'zi- chi? Yuragini kemirayotgan dard-u xasratlarini, birda gina- kudutat, birda g'urur sabab, tog'asiga qorslik qilgan bo'lsa ham, dil- dilidan yaxshi ko'rganini, axir bir kun oyog'iga tiz cho'kib, ko'nglidagi barcha orzu- armonlarini to'kmoqchi bo'lib yurganini endi kimga aytadi? Bu sovuq qabr, bu tog'-u toshlarga?*

*Nahot bu gaplar uning ko'nglida toabad armon bo'lib qolsa? Nahot, u endi umrbod afsus- nadomat chekib o'tsa?*

*Afsus- nadomat emish! Xey, Otaqo'zi! Loaqal, endi, bu ulug' insonning qabri tepasida, o'z vijdoning oldida munofiqlik qilmagin. Ilgarilari o'ksitganing yetmagandek, umrining eng so'nggi daqiqalarigacha betgachoparlik qilmadingmi bu halol va xokisor odamga? Soxta obro', yuksak lavozim va o'tkinchi shon- shuhratni deb, uning yaxshi niyatlarini rad etib, yaxshi gaplarini oyoqosti qilmadingmi? Hatto peshonang devorga borib tekkanda ham, hatto shu bugun ham hayotning bu shafqatsiz saboqlaridan xulosa chiqarish o'rniga manmanlik qilib, hamon o;z obro'- e'tiboring uchun olishayotganing yo'qmi? Bas! Bo'ldi! Loaqal endi bu muqaddas qabr tepasida munofiqlik qilma, loaqal endi, hayotning bu rahmsiz hukmi oldida halollikni, diyonatni o'yla, Otaqo'zi!..(O. Yoqubov. "Diyonat", 349- bet).*

"Diyonat" romani qahramoni Otaqo'zi tilidan:

*Yaxshiyam aya o'sha yerda, o'sha daqiqada qulab qolmabdi! Balki shunday bo'lgandir ham, balki u eshikni qarsillatib yopgandayoq yiqilib tushgandiru, keyin kasalxonada... Yo'q, yo'q unday bo'lishi mumkin emas! Boshqa bir narsa bo'lgan unga. Keyingi paytlarda aya o'zi charchab qolgan, yolg'izlikda ezilib, o'g'lini o'ylayverib, adoyi tamom bo'lgan. U bo'lsa, Otaqo'zi bo'lsa, butun zahrini shu*

*mushtipar kampirga, bu bebaqo dunyoning g'am – g'ussasidan qaddi dol bo'p qolgan shu ko'ngli siniq kampirga sochdi! Ha o'sha kuni yaxshi ish qilmadi Otaqo'zi! Avvalambor, tog'asi savol berganda zalda o'tirgan barcha ilm ahlining yuziga oyoq qo'yib, shaetta turib chiqib ketdi, keyin cholg'a achchiq qilib, odamlar orasida basharasiga tuflagandan beshbattar qildi!*

Ushbu keltirilgan misolda ham O'BKGning yorqin formasi ifodalangan.

O'BKGning yoyiq formasi o'ziga xos sintaktik butunlikni tashkil etadi. Bu formadan foydalanish bilan avtor kitobxonga personaj ekspressv intonatsiyasining nozik torlariga quloq tutish va ularning nutq predmetiga munosabatini, atrofdagi voqea- hodisalarga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun imkon beradi. O'BKGning yoyiq formasi personaj o'y- xayollarni, ichki kechinmalarini jarayon holida, yani to'xtovsiz o'sib boruvchi tarzda berish uchun ishlatiladi. Masalan: Shahzoda peshonasidan shig'illab oqqan sovuq terni sidirib tashlab, o'zini yana kursiga otdi.

*“Voajabo! Unga ne bo'ldi? Nechun titraydi? Nechun iztirob chekadi? Padari buzrukvor atalmish betavfiq shoh qatl bo'lsa, shahzodaning gunohi ne? uni qatl qilgan o'z g'animi Sayid Abbos emasmu? Kim unga dini islomga muqomavat qilib, barcha ulamoyi zabardastlar, sayidlar, barcha ummati mustafoni haqorat qil dedi?.. Parvardigori olamning qahridan qo'rqmay, arshi a'lo hisoblanmish koinot sirlarini ochmoqqa jazm etgan, o'z jazosini oldi. Zotan, shahzoda undan qiblagoh deb atalmish bu bemehr mutakabbir shohdan ne yaxshilik, ne mehr- sahovat ko'ribdiki, unga ko'rinadi? Padar bo'lib, bir marotaba bag'riga bosmadi, o'g'lim deb boshini silamadi. Bor mehr- sahovatini, bor shirin so'zini farzandi arjumandi shahzoda Abdulazizga baxsh etdi. Uni suydi, bag'riga bosdi... Alouddavla Xirotni zabt etgach, uning- Abdulatifning ko'nglini ko'targan bo'lib, Balxni berdi- da, o'zi shu shon-shavkati, shu mahobati bilan Movaraunnaxrga biqinib oldi. Unga arzimagan Balxni berib, go'zal dorussaltanani farzandi munisi Abdulaziz tasarrufiga topshirdi... ”*

*Shahzoda bo'lib o'tgan nizo- nifoqlarni eslagan sayin, tomir- tomirlarida qoni jo'sh urib, o'rnidan turib ketdi... (O. Yoqubov. Ulug'bek xazinasi, 147- 148).*



“Ulug’bek xazinası” romanidagi padarkush Abdulatif obraziga tegishli bo’lgan bu O’BKG dastlab past, mayin intonatsiyada edi, keyinchalik bu O’BKGDa keskin intonatsion o’zgarish yuz berdi. Bu o’zgarish so’roq olmoshlari ne, nechun, kim singari yuklamalar -mu?, -ku?, -ning tekstga kiritilishi, gaplarning qisqa- qisqa formada keltirilishi, so’roq gaplarning qo’llanishi natijada amalga oshirildi.

Umuman olganda, O’BKGning yoyiq formasi prozaik tekstlarda personajlarning o’z fikr va qarashlariga ishonchi, gumonsirashi, ruhiy azoblanishi singari tabiiy holatlarni ravshan aks ettirish maqsadida keng qo’llanilmoqda. “Ufq” trilogiyasidagi Nizomjon obrazi ham O’BKGlarning yoyiq formasiga misol bo’la oladi: Nizomjon qamishlar orasini kezarkan, beixtiyor Jannat xolani esladi. *Bechora shu qamishlar orasida beliga nontugib o’g’lini qidirib yurardi. Bu xotin unga qancha yaxshiliklar qilgan. Nizomjon Jannat xolaningb keyingi kunlarini ko’z oldiga keltirdi. Ozib, beli bukchayib qolgan edi bechoraning. Og’ir xasta edi. Xastaligini eridan yashirardi. Ikromjon uning biror marta ingraganini eshiotmadi. Og’ir tan og’rig’ini ingroqsiz o’tkazdi, boyaqish. Agar Ikromjon uning kasalligini bilsa, osha zahotiyoq Zirillamaga tushirib yuborardi. Yo’q, Jannt xola dardga mard bo’lib chidadi. Aqalli biron marta ingramasdan, oh- voh qilmasdan join berdi. O’g’lining firoqida, dard- u alamida shu to’qaylarda jon berdi.*

(Said Ahmad. “Ufq”, 590- bet).

Xuddi shu asarda Azamjon va Dildor obrazlari ham O’BKGlarning yoyiq formasiga yaqqol misol : Ertalab A’zamjon “Villis”da Naymanga keldi.u shu paytgacha ukasining uyini ko’rmagandi. Ko’chada o’ynab yuirgan bolalardan surishtirib uyini topgandan keyin, yuragi orqasiga tortib ketdi. *Nizomjon o’lib- netib qolgan bo’lsa- ya. O’sha kuni jahl ustida har ish bo’ldi. Nega o’zi o’qdek uchib kelatotgan mashinaning yo’lini to’sadi. Bordi- yu, tirik bo’lsa, hozir chiqadi- yu, boshiga odam yig’adi. Hamma bo’lgan gaplarni aytib beradi.*

A’zamjon shunday hayollar bilan eshik oldida turgan edi, bola ko’tarib Zebixon chiqib qoldi. ( S.Ahmad, “Ufq”, 586- bet).

Dildor endi erini, bolasini o'ylab ketdi.

*Shundoq bolasini tashlab ketdi- ya. Bola nima bo'ldi. Hozir- ku hech narsani bilmaydi. Katta bo'lganda kimni qarg'aydi? Ikkita kap- katta odam shu norastaning ko'nglini yarimta qilib o'stisak. Dadasining qilmishlarini unga tushuntirib bo'larmidi. Bola qachonki bolmasi, dadam, deydi. Katta bo'lganda o'ksimasmikan? Shu birgina bolam uchun qanchalik ko'p xo'rlik bo'lsa, bariga chidardim. Qandoq qilay, tashlab ketdi. Tashlab ketganiyam mayliga- ya, uylandi. Uylanmaganda ham qaydadir sang'ib yurgan erim bor derdim. U menga endi hech kim. U yot, begona, boshqa xotin bilan toleyini baham ko'ryapti. U bechora kim bo'ldi? Aldanmaganmikan? Bir kun tashlab ketib kuydirmasmikin uni ham?* (S.Ahmad, "Ufq", 565- bet).

Dildor bir narsani yaxshi tushungan edi. Bir marta sevgida yanglishgan odam o'sha adashuvning dardini umrbod tortadi. Mana, u tortyapti- ku. Dildor birdan o'rnidan turib qirga qaradi. Tong oppoq bo'lib yorishib kelardi. Shu oppoq nur uning ichiga kirgandek qat'iylashdi.

- *Xolmatjon yomon bola emas. Balki, men uni sevmasman. Nega sevmayman? Yo'q. sevishim mumkin! Sevmasam, nega kechasi bilan o'ylab chiqdim. Albatta, endi yosh bola emasman. Oyga qarab entikadiogan, qushlar nag'masini eshitib yig'laydigan yoshdan o'tdim. Endigi sevgi boshqacharoq bo'lsamikan.*

- *Xolmatjo o'g'limga ota bo'la olarmikan? Uni siqishtirmasmikan?*

Bu savol uni o'ylantirib qo'ydi.

Said Ahmad prozaik tekstlarda O'BKGning tasodifiy formalar tasodifiy formasini ham qo'llab uchratish mumkin. Bu forma avtor bayoni jarayonida kutilmaganda, tasodifan personajlar hayolidan olib berilganlikni anglatadi. Masalan: *"Tursunboy qayoqlarda yurgan ekan? Ketar oldida Ikromjonuni bag'riga bosolmadi. Bu kunlar diliga armon bo'lib qolmasin ishqilib. Ikromjon o'z xayolidan qo'rqib ketdi".* (Ufq, 291- bet). *"Qo'rg'onga pinhon yetib oldilar. Agar Shayboniyxon*

*ichkariga “qopqon” qo’ygan bo’lsa- chi? Bobur bu qopqonga o’z oyog’i bilan kirib boradimi?”* (P. Qodirov. Yulduzli tunlar, 187- bet). *“Gulchehra labini tishladi. Nahotki bilsa?! - yashin tezligida xayolidan o’tdi”*. (O’lmas Umarbekov. Odam bo’lish qiyin, 193- bet) va hakoza.

“Sinchalak” povestining bir o’rnida Qalandarov Saida bilan dastlab o’z uyida, dasturxon atrofida uchrashadi, shu payt xotini Xurini soning ayrim gaplari yoqmay, uni urishib ketadi: *“ –Tishi chiqqan bolaga- chaynab bergan osh bo’lmas deganlar! Har nima qilsangiz qiling, meni itingiz yoniga bog’lang, lekin rahbarlik qilmang! Toqatim yo’q! Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavani uchini yo’qotib qo’yaman!”* (69- bet).

Er- xotin yonida o’tirgan Saidaga bu gaplar qattiq ta’sir qiladi, buni o’z xayoliy nutqida Qalandarov aytgan iborani takrorlab, mulohaza yuritishidan ham sezish mumkin: *“Lekin Saidaning nazarida, suhbatdan ketgan fayz qaytmadi. Uning ko’nglida g’ashlik paydo bo’ldi: “Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavani uchini yo’qotib qo’yaman... Hozir xotiniga shunday deyish zarurmidi yoki kirpi chol payt poylaganda meni ogohlantirayotibdimi?..”* (70- bet).

Dastlab Qalandarov nutqida qo’llamgan va uning xarakter xususiyatini belgilab berishga xizmat qiluvchi *“kalavanning uchini yo’qotib qo’ymoq”* iborasini keyinroq Saida yana bir o’rinda Qalandarov bilan to’qnashuvda esga oladi, bu bilan Saida raisni kinoya qilmoqchi bo’ladi: *“- Undoq emas, Arslonbek aka, dedi kulimsirab, - ayol kishi rahbarlik qilsa, kalvangizni yo’qotib qo’yasiz...”* (87- bet).

Yoki saida Qalandarovga bir o’rinda uning o’z so’zlarini eslatib: *“... “Bo’ston”ga o’xshagan kolxozlarning o’ntasini bitta chinchalog’ingiz bilan ko’tarasiz! Sinchalak degan qushni bilasizmi, oyog’i ipday. Shu qush “osmon qulab tushsa, ushlab qolaman” deb oyog’ini ko’tarib yotar ekan!”*, - degan edi. Keyinroq Qalandarov uning sinchalak haqidagi gaplarini o’z xayoliy nutqida esga oladi: *“Qalandarov xiyla vaqtgacha uxlolmay o’ylab yotdi. “Bu qiz ko’nglida kek saqlaydigan, undan ham yomonrog’i – shunaqa ishlar qo’lidan keladigan ekanda! ...*

*Yo alhazar, jindakkina jussasiga shuncha ayyorlik, shuncha makr- xiyla sig'sa- ya! Boshqa hech nima bo'lmasa- da, ayyorlikda chindan ham osmonni ko'targulik chog'i bor- ku!... ”* (112-113- betlar)

Povestdagi bunday o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar yordamida “*esga olishlar*” asarning kompozitsion yaxlitligini, tasvirdagi mantiqiy izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Keltirilgan dalillar shundan dalolat berdiki, o'zbek prozaiklari O'BKGning tasaodifiy formasidan qahramonlarning ichki kechinmalariga xos o'rinlarni, personajlarning voqea- hodisaga, suhbatdoshning xatti- harakatiga avtor munosabatini siqiq, qisqa, nutq parchalari vositasida anglatish maqsad qilib olgan holatda foydalanmodalar. O'BKGningbu formasi prozaik nutq teksti ichida o'z ekspressiv ishlatilishi subyektiv- modal plandaligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, O'BKG formalari o'ziga xos grammatik, stilistik va intonatsion xususiyatlarga ega bo'lib, proza asarlari tiliga badiiylik, ta'sirchanlik bag'ishlabgina qolmay, personajlar ichki dunyosini, xarakterini to'laroq yoritish imkonini ham yuzaga keltiradi

## XULOSA

O'BKGlار o'zga gapni ifodalovchi formalaridan biri bo'lib, asosan badiiy nutq stilida qo'llanadi. Ular shaklan sof ko'chirma gapga o'xshasa- da, yozuvchi tomonidan o'z bayoniga singdirilgan holda ifodalanishi, ko'pincha alohida avtor gapiga ega emasligi bilan undan farqlanib turadi, balki uning o'rnida o'zi o'ylaydi, o'zi gapiradi.

Shu kungacha o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida o'zga gapning bu turi grammatik va stilistik tomondan qisman o'rganildi, ayrim maqolalar e'lon qilindi, bu haqdagi ma'lumotlar ba'zi darslik va qo'llanmalardan o'rin oldi. Olimlar bu hodisani "o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar" (M. Asqarova, A. Hojiyev, O. Isroilov, G'. Mahmudov), "o'ziniki bo'lmagan nutq" (O'. Nosirov, B.Yo'ldoshev), "qisman o'zlashtirilgan ko'chirma gap" (T. Rasulov), "ikki ovozli nutq", "noxususiy bevosita nutq" (S. Mamajonov), "egasiz ko'chirma gap", "o'zlashtirma avtor gapi" (L.D. Usmonov), "bilateral nutq", "bilateral o'zga gapli konstruksiyalar" (A.B. Abdullayev) singari terminlar bilan atab kelinmoqda. Qo'llanilgan bi terminlarning barchasi nisbiy xarakterga ega bo'lib, rus tilshunosligida keng tarqalgan "несобственно- прямая речь" terminini tarjima qilishga, o'zbekchalashtirishga bo'lgan urinishlar natijasidir.

O'BKG orqali hodisa sifatida emas, balki badiiy nutq stilining eng xarakterli vositalaridan biri sifatida o'zbek adabiy tilida keng qo'llanmoqda. O'BKG personajning "ichki" va "tashqi" nutqini shuningdek, o'y- xayolini bayon qilishda muhim sintaktik- stilistik kategoriyadir.

O'BKGning tuzilishi va shakllanishi usuli grammatik jihatdan am, intonatsion jihatdan ham, odatdagi sof ko'chirma gaplarnikidan farq qiladi: O'BKG o'ziga xos grammatik, intonatsion va stilistik xususiyatlarga ega bo'lgan o'zga gap formalaridan biridir.

O'BKGlarning leksik- frazeologik tipi, yoyiq, dalogik, tasodifiy formalari badiiy nutq stilida, ayniqsa, liro- epik va prozaik tekslarda qo'llanadi. O'BKGning avtor nutqi bilan yaxlit murakkab sintaktik butunlikni hosil qilishda tafakkur va nutq fe'llari, tinish belgilari (ko'p nuqta, qo'shtirnoq, ikki nuqta kabilar) muhim rol o'ynaydi.

O'BKGlarning genetik va struktural- semantik tipologiyasini, ularning morfologik belgilari, leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasidan, boshqa funksional stillar, ayniqsa, og'zaki so'zlashuv stili bilan munosabatini o'rganish, bu hodisani falsafiy- estetik va psixologik aspektlarda tadqiq etishni yo'lga qo'yish o'zbek filologiyasida oldida turgan eng muhim vazifalar qatoriga kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўчирма гапли конструкциялар. – Т.; Фан, 1978
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули., -Т.; Фан, 1983.
3. Абдуллаева Д. Семантик- синтактик валентлик ва ўзга гапли қурилмалар КДА. – Самарқанд, 2001.
4. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси – Т.; 1964.
5. Асқарова М. Қўшма гапнинг кўчирма гапли тури ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. - 1961.-Н1.
6. Иминов М. Ўзлаштирма гап борми? // Ўзбек тили ва адабиёти – 1990.- Н3
7. Орипов А. Йиллар армони. – Т.; Ғ.Ғулом номидаги нашриёт, 1963,83- бет.
8. Исроилов О. Кўчирма ва ўзлаштирма гапнинг айрим хусусиятлари// Совет мактаби -1968. – Н7.
9. Исроилов О. Ҳозирги замон ўзбек тилида ўзга гап, II қисм, Самарқанд, 1981.
10. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.; Ўқитувчи, 1995.
11. Нематов Ҳ, Расулов Р. Ўзбек тилининг сйстем лексикологияси асослари. – Т.;1995.
12. Расулов Р. Ҳолат феълларининг облигатор валентлиги. – Т.; 1989.
13. Йўлдошев Б., Исроилов О. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапларнинг грамматик- стилистик хусусиятлари ва бадий матндаги ўрни. – Самарқанд, 1992.

14. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. – Т.; 1976.
15. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.; 1961.
16. Шарипов М.К. Ўзбек тилида кўчирма ва ўзлаштира гаплар . – Т.; 1955.
17. Шоабдурахмонов Ш ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.; 1980.
18. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982.
19. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили, икки томлик, 2- том. – Т.; Фан, 1966.
20. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Т.; 1975.
21. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
22. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).